

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
Tarjimonlik fakulteti

«Himoyaga ruxsat etiladi»
Fakultet dekani
A.I.Sayfullayev _____
« _____ » _____ 2014 y.

Yunusov Eldorning

5220100- Filologiya: koreys tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish
uchun

« KOREYS TILIDA SALOMLASHISH SHAKLLARI VA XUSUSIYATLARI »
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: Lee Eun-Mi

Ilmiy maslahatchi: f.f.n.A.Turobov

«Ish muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etiladi»
(____ -sonli bayonnoma, 2014 y., « ____ » _____)
“Osiyo mamlakatlari tillari”
kafedrasi mudiri: _____ To'rayeva D.



Samarqand-2014

MUNDARIJA

I.KIRISH	3
II. ASOSIY QISM	
I BOB. KOREYS TILIDA SALOMLASHISH SHAKLLARINING TURLARI	
1.1.Vaziyat (holat) jihatdan turlari.....	12
1.2. Ma’no jihatdan turlari.....	21
1.3. 빈말 인사.....	24
II BOB. KOREYS SALOMLASHISH SHAKLLARINING FOYDALANISH HOLATLARI	
2.1. Savol-javob haqida umumiy malumotlar.....	28
2.2. Savol-javob natijalari tahlili.....	29
III BOB. O’ZBEK VA BOSHQA TILLARDA SALOMLASHISH SHAKLLARINING TURLARI VA FOYDALANISH HOLATLARI	
3.1. Koreys va boshqa (ingliz, yapon va xitoy) tillar salomlashish ifodalarini solishtirish.....	44
3.2. O’zbek tilida salomlashish ifodalarining turlari va foydalanish holatlari.....	48
IV. XULOSA	54
V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	57

I. KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. 1991-yil O‘zbekistonda ulkan tarixiy voqea sodir bo‘ldi–Mustaqillik e‘lon qilindi. Shu palladan boshlab bu muhim sana Respublika tarixi yilnomasiga kirdi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “O‘zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” qaror, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6 sessiyasi 1991-yil 31-avgustda qabul qilgan Bayonotda, jumladan, bunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, hududi bo‘linmas va daxlsizdir. O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da‘volari bo‘lmay, u o‘z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir”.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Respublikamizni o‘zining tarkibiga qabul qilinganligi haqida qaror qabul qildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga kirgan boshqa davlatlar singari O‘zbekiston ham jahonning ana shu eng mo‘tabar tashkilotining to‘la huquqli a‘zosi bo‘ldi.

Mustaqillikka erishgach, Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek “...biz o‘z milliy tabiatimiz va ming yillik an‘analarimiz, urf-odatlarimizga zid bo‘lgan soxta kommunistik g‘oyalardan voz kechdik. Lekin ... bo‘sh qolgan mafkura maydonidan bizga begona, orzu-intilishlarimizga, shuurimizga yot g‘oyalar egallashga urinishi shubhasiz. Hozirgi paytda ro‘y berayotgan ayrim salbiy holatlar nojo‘ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo mafkuraviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘lmoqda” I. A. Karimov “bunday mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?¹” degan savol qo‘yib bunga shunday javob berdi:

“Buning yo‘li-odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizni iymon-e‘tiqodini

¹ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon pirovard maqsadimiz. -T., O‘zbekiston, 2000, 63b.

mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash hozirgi kunda yosh mutaxassis qanday sohada mehnat qilishidan qat'iy nazar o'z kasbini chuqur egallashi bilan birga o'z tarixini, urf-odatlarini qadriyatlarini yaxshi o'zlashtirgan hamma bilan yaqin aloqada bo'la oladigan mutaxassis, olim, adib, muallim, jamoat arbobi bo'lishiga, men o'zbek farzandiman deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishish zarur".

Shuningdek, yurtboshimiz tomonidan aytilgan fikrlar isboti sifatida ta'lim sohasida qilingan va qilinajak ishlarga nazar tashlasak. Buni biz «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» misolida keltirsak o'rinli bo'lar edi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishing o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora tadbirlar ko'rishni: "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni joriy etishni (1992-yil); yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotini ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim

muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat: respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan izchil ilgari lab borayotganligi, mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, respulika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayotganligi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanoyatganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat; O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiya, respublikaning jahondagi mavqei va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Mazkur dasturning maqsadi-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Shu o'rinda davlatimiz rahbari Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak"² deya ta'lim xodimlari oldiga vazifa qo'ygan edi.

Juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik e'lon qilganidan keyin tabiiy boyliklarini o'zgalarning zug'umisiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish yo'lida xizmat qildirishga haqli bo'lib qoldi.

Ona-Vatanimizning siyosiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda kun sayin rivojlanib borayotganligi hech kimni ajablantirmasligi tabiiy. Buning sababi esa

²"Barkamol avlod orzusi".-Toshkent.: "Sharq" NMAK,1999y

yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim sohasining jahon standartlariga olib chiqilayotganligidir. Ko'plab talabalarimiz dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarda tahsil olmoqdalar va mukammal kadr bo'lib yetishmoqdalar. Buning poydevori esa tabiiyki chet tillarini o'rganish orqali barpo etiladi.

Bugungi kunda mamlaktimizda chet tillarni o'rgatish va o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazida joriy yilning 17-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligining chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ishchi guruhining yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishni Xalq ta'limi vazirligining Umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish Bosh boshqarmasi boshlig'i Y. Asadov olib bordi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 24-dekabrda majlis bayonida belgilagan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq ta'limi vazirligida chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkil qilingan ishchi guruhi a'zolari va vazirlikning tegishli bo'lim va boshqarma boshliqlari hamda tegishli mutasaddi vakillar qatnashishdi.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, chet tilini ta'limning barcha bosqichlarida uning davomiyligini nazarda tutuvchi yangi o'quv rejalar, dasturlar, dasrlıklar va elektron axborot-ta'lim resurslarini tayyorlash bo'yicha fikr va mulohazalar almashdilar.

Shuningdek, 28-29 mart kunlari Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazida "Ingliz tili va boshqa tillarni o'rganishda zamonaviy AKTdan foydalanish" loyihasining ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Tadbir ZiyoneT Resurs markazining Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bo'limi, Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda Xalq ta'limi vazirligi

“Ta’lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” bo‘limi hamkorligida o‘tkazildi.

Unda so‘z olganlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi hamda ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, dars jarayonlarida qo‘llash shu bilan bir qatorda, xorijiy mutaxassislar tajribasini o‘rganish, tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida qo‘llash, ma’naviy yetuk va har tomonlama barkamol avlodni kamol toptirishda eng avvalo pedagog-kadrlarni malakasini oshirish eng muhim vazifalardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tildi

Yuqorida keltirilgan faktlar bu bir sohadagi yo‘nalishlar ko‘rinishida edi. Shuningdek, ilm-fan va madaniyat sohasida ham ko‘zga ko‘rinarli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda tilshunoslarning diqqat e’tiborini til va madaniyat masalalarining o‘zaro bog‘liqligi, tilning ijtimoiy va ma’naviy-madaniy dunyoqarashlar bilan uzviy holda rivojlanishi, shuningdek bugungi jamiyatdagi inson va madaniyat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi masalasi ko‘proq qiziqitirmoqda. Aynan ma’naviy-madaniy dunyoqarashlarda dunyoning turli-tuman shakllardagi qadriyatlarini, muayyan xalqning ma’naviy hayoti, axloqiy tushunchalari, real borliqni ma’naviy-madaniy dunyoqarashlar asosida tasavvur qilishdagi o‘ziga xosliklar, ruhiy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi. Chunki har bir inson mana shu real borliqda yashaydi, ammo har bir insonning tasavvurlari subyektiv tushunchalardan hosil bo‘ladi. Qolaversa, subyektiv borliq alohida bir kishining tasavvurida emas, turli xil madaniyatga ega bo‘lgan kishilarning tasavvurlarida turlicha o‘z aksini topadi. Tabiiyki zamonlar o‘tishi bilan madaniyat haqidagi tushunchalar, tasavvurlar turli xalqlarda, irqlarda turli darajada o‘zgarib boraveradi. Alohida olingan millatlar uchun madaniyat haqidagi tasavvur va tushunchalar obyektiv ravishda ularning tillarida shakllanadi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi zamon semantik tilshunosligining

asosiy vazifalaridan biri tillar orqali dunyoning konsepsyalashtirishga doir tadqiqotlar, boshqacha aytganda olamning lisoniy tasavvur qilish masalalari, til orqali madaniyatni qay yo'sinda shakllanishini o'rganish masalalari ko'proq qiziqtirmoqda.

Muayyan bir xalqning yoki millatning o'ziga xos madaniy shakllarini o'rganish bilan bir qatorda, turli tillardagi madaniy shakllarini o'rganish masalasi ham prinsipial ahamiyatga ega. Til nafaqat bir-birini tushunish vositasi, balki boshqa millatlarning madaniyati, m'anaviyati va ularning madaniy qadriyatlarini o'rganish vositasi hamdir. Olamning milliy-lisoniy idrok etish har bir millatning ularning faqat o'zlariga xos tayanch konsepsiyalarida, tushunchalarida, timsollarida mentalitetida o'z aksini topadi. Tilshunoslik nuqtai nazardan biz bunday tillarning strukturasi, so'zlar, iboralar, frazeologizmlar, aforizmlar, matnlarda ifodalagan ma'nosini tadqiq qilamiz. Aynan mana shu vositalarda shu millat xalqlarining fon bilimlari va bu bilimlarning olamni idrok qilishdagi tasavvurlari o'z aksini topadi. Olamni idrok qilishda turli xalqlarning turlicha qarashlarini o'rganish hozirgi zamon lingvistikasi va lingvokulturologiyasi oldidagi eng jiddiy nazariy masalalardan biri bo'lib turibdi.

Masalan, turli millatlarning salomlashish va urf-odatlarida biz bir-biriga o'xshash shakllarni, ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Ammo har bir xalqning madaniy shakllarida yaqqol ko'zga tashlanadigan milliy o'ziga xoslik ko'rinib turadi. Koreys va o'zbek xalqlari madaniy o'xshashliklarni qiyoslab o'rganish o'zbek tilshunosligida deyarli o'rganilmagan soha. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ham juda kamligi bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Salomlashish shakllari jahon xalqlari madaniyatining eng muhim madaniy ko'rinishini ochib beradi. Koreys salomlashish shakllari ham xuddi o'zbek xalqidagidek ma'naviyatliligi, kattalarga hurmat kichiklarga izzatda bo'lish, boshqa xalqlar madaniy ko'rinishlariga hamohang o'xshash shakllarga, mavzu va xususiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan keyingi davrlarda Yevropa, Osiyo

xalqlari, jumladan koreys xalqi madaniyati va turmush tarziga qiziqish shu darajada kengaydiki, endi uni vositali til orqali emas, balki bevosita tarjima qilish yo'lga qo'yildi. Bu madaniy-adabiy aloqalar va munosabatlar rivojlanib borishidagi yaxshilik alomatlaridandir.

Umuman olganda, salomlashish shakllari til orqali avloddan-avlodga o'tib keladi. Shuning uchun ular bilan tanishish o'sha xalqning tarixi, ma'daniyati, turmush tarzi va boshqa jihatlari haqida ko'p ma'lumot beradi. Olimlarning fikricha, salomlashish shakllari tadqiqodi bir til haqidagi qator muhim va dolzarb savollarni hal qiladi. Tilning ahamiyatli birliklariga, so'zning leksik ma'nosi xarakteriga, ifodalarning o'zaro ishlatilishi va ma'no moslashuviga ta'luqli, shuningdek, so'zlarning tashkil topishi va etimologiyasining turli xil savollari hamda, tilning mintaqaviyligi, shu xalq mentaliteti va asriy qadriyatlarini badiiy nutq orqali ochib beradi.

Mavzuning ob'ekt predmeti. Chet tilini o'rgatish bilan birga uning madaniyati, tarixi, adabiyoti, yozuv tarixi kabi dars mashg'ulotlarini o'z ichiga oladigan barcha o'quv materiallarini, jumladan, koreys va o'zbek tillaridagi madaniyat shakllari ko'rinishlari shuningdek, koreys talabalari tomonidan o'tkazilgan savol-javob tadqiqot ishlari obyekt sifatida olindi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. O'rganilayotgan chet tilini nafaqat ilmiy tomondan balki shu xalqning madaniyati, tarixi orqali o'zlashtirish, unda o'zlashtirilagan bilim va ko'nikmalar o'zbek tilidagi shakllar bilan, xususan, salomlashish shakllari va ularning turlari, gapdagi qo'llanilish holatlari va vazifasi kabilarni taqqoslash yo'li (taqqoslash nafaqat ikki tilda, balki bir necha tillarda olib borildi), o'xshashligi(ayrim hollarda noo'xshashligi), bu jarayonning muhimligi qatori uning chet tili o'qitish metodikasida ham o'ta dolzarb ekanligi kabi masalalarning tadqiq etilishi mavzuning maqsad va vazifalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Bitiruv malakaviy ishimizni bajarishda xorijiy tillar o'qitish metodikasining asosiy tadqiqot metodlari:qiyoslash, taqqoslash

va nazariy xulosaga kelish metodidan foydalandik.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimizda masalani o'rganishga bag'ishlangan koreys tilida qilingan ilmiy ish va savol-javoblar umumlashtirilib, masalani o'rganishga doir turli qarashlarni umumlashtirishga va shu asosda o'z qarashlarimizni bayon qilishga urindik. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu masalani o'rganishga doir o'zbek tilida birorta tadqiqot ishlari amalga oshirilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ish kirish, uch bob, 7 paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ob'ekt predmeti, maqsad va vazifalari, metodologik asosalari, ishning ilmiy yangiligi va tarkibiy tuzilishi ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning **“Koreys tilida salomlashish shakllarining turlari”** deb atalgan birinchi bobida koreys tilida salomlashish shakllari vaziyat va ma'no jihatdan turlari tajriba va izlanishlar keltirilgan adabiyotlarda maqsad va kategorik jihatdan bo'linib tahlil qilinganligi, shuningdek, ularni holat va ma'no jihatdan qismlarga ajratilib, har bir qism misollar asosida tahlili bayon etiladi.

“Koreys tilida salomlashish shakllarining foydalanish holatlari” nomli bobda esa umuman koreyslar ko'pincha ishlatadigan salomlashish shakllarining ishlatilish holati yuzasidan olib borilgan savol-javob(kichik tadqiqot) natijalari ochib beriladi. Bunda salomlashish ifodalari shakllarining foydalanilishi jins, yosh va daraja jihatdan tahlili ko'rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ishning uchinchi bobi **“O'zbek va boshqa tillarda salomlashish shakllari va foydalanish holatlari”** deb atalib, bunda o'zbek, ingliz, yapon va xitoy tillaridagi mavjud salomlashish shakllari ifodalarini koreys tilidagi mavjud shakllar bilan solishtirish amalga oshiriladi. Solishtirish jarayonida mavjud tildagi shakllarning o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatiladi. Bu bobning ikkinchi

qismida o'zbek tilidagi mavjud salomlashish shakllari koreys tili bilan solishtilmasdan, alohida qismlar asosida havola qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida to'plangan natijalar ilmiy asosda xulosalangan.

II. ASOSIY QISM

I BOB. KOREYS TILIDA SALOMLASHISH SHAKLLARINING TURLARI.

1.1.Vaziyat (holat) jihatdan turlari.

Mavjud izlanish va tajribalarni ko'rsak, salomlashish shakllari haqida 전영우 (1987)da foydalanish maqsadiga ko'ra 6 turga bo'linib, 서정수 (1997)da umumiy holatdagi salomlashish kategoriyalarni 16 turga bo'lingan, 황병순 (1999)da umumiy holat va maxsus holat salomlashish shakllariga bo'linadi.

Biz asos qilib olgan malumotlarda 조선일보사 (gazeta nomi), 국립국어원 (koreys tili tadqiqot markazi) (1991) ni asosiy mavzu (punkt) orqali olinib, avval salomlashish shakllarini vaziyat va ma'no jihatdan bo'lib, vaziyat yana umumiy va maxsus holatlarga bo'linadi. Umumiy vaziyat vaqt bilan bog'liq uchrashuv vaqtida va xayrlashish vaqtiga ajtarilib, maxsus holat Yangi yil tabrigi, tug'ilgan kun tabrigi, uyko'rdi taklifi, aza va kasalko'rdi, do'konga chiqqan ya'ni borilgan vaqtlarga bo'lib o'rganiladi.

Umumiy holatlarda ishlatiladigan shakllar

a)Vaqt jihatdan salomlashish turlari

Koreyslar umuman ko'p ishlatadigan salomlashish ifodalari vaqt bilan bog'liqlarini ko'rsak, ertalab turib “(밤새) 안녕히 주무셨어요?” (Tunda) Yaxshi uxladinigizmi?), “편히 주무셨어요?” (Yaxshi uxladinigizmi?), “잘 잤어요?” (Yaxshi uxladinigizmi?) kabilar bo'lib, uydan chiqishda “다녀오겠습니다” (Borib kelaman) shakllari bor bo'lib, uydan kuzatib qolgan vaqtda “안녕히 다녀오세요” (Yaxshi borib keling), “운전 조심하세요” (Mashinani ehtiyot bo'lib, haydang),

“차 조심하세요” (Mashinadan ehtiyot bo'ling) kabilar bor.

예)

가:할아버님, 밤새 안녕히 주무셨어요?

Buva, yaxshi yotib turdingizmi?

나:네, 푹 잤어요.

Ha, yaxshi yotib-turdim.

가:어머니, 다녀오겠습니다.

Oyi, Men ketdim (biror joyga borib kelish)

나:네, 길에 다닐 때 차 조심해.

Ha, yo'lda mashinadan ehtiyot bo'l.

가:여보, 운전 조심하세요.

Azizam, mashinani ehtiyot bo'lib boshqaring.

나:제가 전화할게요.

O'zim qo'ng'iroq qilaman.

Tushlik vaqtining salomlashish shakllari “점심 드셨어요?” (Tushlik ovqatlarini yedingizmi?) ni, kechki vaqtda “저녁 드셨어요?” (Kechki ovqatni yedingizmi?) kabilar ishlatiladi. Uyga qaytib kelganda “다녀왔습니다” (Borib keldim) uxlashga yotish vaqtida “안녕히 주무세요” (Yaxshi uxlang) kabilar asosan ishlatiladi.

예)

가:아버지, 점심 드셨어요?

Dada, tushlik qildingizmi?

나:응, 먹었지.

Ha, yedim.

가:남준아. 방에 가서 자.

Namjun, xonanga borib uxla.

나:네, 안녕히 주무세요

Xo'p, yaxshi uxlab turingizlar.

b) uchrashgan vaqtdagi salomlashish shakllari

Birinchi uchrashganda odatda “안녕하세요” (Assalomu alaykum) deyiladi. “처음 뵙겠습니다” deb ham qo’shib qo’yadi. Uzoq vaqt ko’rishmagach “(정말) 오랜만이네요” (Ko’rishmaganimizga ancha bo’libdi). “그 동안 잘 지내셨어요?” (Yaxshi yuribsanmi?) ni ishlatiladi. Tasodifan uchrashib qolganda ko’chada “어디 가세요?” (Qayerga ketayapsiz?) deb, qayerdadir uchratganda “여긴 어떤 (뭔) 일이세요?” (Bu yerda nima qilib yuribsan?) shakllari asosan ishlatiladi. O’z hissiyotini kuchliroq ifodalab, “아니 이게 누구야?” (E, bu kim?[yani kimni ko’rayapman ma’nosida]) kabi ifoda shakllari ham ishlatiladi.

예)

가:안녕하세요? 제 이름은 김 이리나입니다.

Assalomu alaykum. Mening ismim Kim Irina.

나:안녕하세요? 처음 뵙겠습니다.

Assalomu alaykum. Tanishganimdan xursandman.

가:정말 오랜만이네요. 그 동안 잘 지냈어요?

Ko’rishmaganimizga ham ancha bo’ldi. Ahvollaring qalay?

나:네, 일 때문에 전화할 시간도 없었어요.

Ha, ish tufayli telefon qilishga ham vaqt yo’q.

가:여긴 어떤 일이세요?

Bu yerda nima qilib yuribsan?

나:그냥 산책하고 있어요.

Shunchaki sayr qilib yuribman.

가:아니 이게 누구냐? 내 눈에 믿을 수 없네.

Kimni ko’rayapman? Ko’zlarimga ishonmayman.

나:친구야, 정말 오랜만이야.

E, do'stim ko'rishmaganimizga ham ancha bo'ldi.

d) xayrlashish vaqtda ishlatiladigan shakllar

Xayrlashish vaqtida ishlatiladigan ifodalar yana uchrashish va'dasi bilan “na중에(다음에) 뵙겠습니다” (.Keyin (yana) uchrashguncha) / “na중에 전화할게” (Keyinroq telefon qilaman) / “다음에 연락드릴게요” (Keyinroq aloqaga chiqaman) “na중에 밥 한번 먹자” (Keyinroq bir uchrashib, ovqatlanaylik) kabilar ko'p ishlatiladi.

예)

가: 안녕히 가세요. 가족들에게 안부 좀 전해 주세요.

Yaxshi boring. Oilangizdagilarga salomimni yetkazib qo'ying

나: 네, 나중에 전화할게요.

Xo'p, keyinroq qo'ng'iroq qilaman.

가: 요즈음은 바쁘데 나중에 밥 한 번 먹자.

Shu kunlarda band edim, keyinroq bir ovqatlanaylik

나: 네, 다음에 먹어요.

Ha, kelasi safar yeymiz.

Tinchligi va sog'ligini tilab “몸 조심하세요” (O'zingizni ehtiyot qiling) oilasini ham so'rab, “안부 좀 전해 주세요” (Salomimni yetkazib qo'ying)kabi shakllar ham ishlatiladi. Yo'lda ketayotib mashina va yo'l harakatidan xavotirlanib, “살피 가세요” (Etiborli bo'lib keting) / “조심해서 가세요” (Ehtiyot bo'lib keting) / “잘 가요” (Yaxshi boring) kabilar mavjud.

Shu kunlarda “운전 조심하세요” (Mashina haydashda ehtiyot bo'ling)/ “차 조심하세요” (Mashinadan ehtiyot bo'ling) shakllari ham ko'p ishlatilib, shuningdek, uchrashuv vaqtini tartibga soladigan yani uchrashuvdan olgan tasirini ifodalovchi

shakllar mavjud bo'lib, xayrlashish vaqtida “오늘 만나서 반가웠어요” (Bugun uchrashganimdan xursandman)/ “오늘 즐거웠습니다” (Bugun xursand bo'ldim) shaklidagi ifodalar ko'proq qo'llaniladi.

예)

가: 할머니, 제가 갈게요.

Buvijon, men ketdim.

나: 차 조심해서 가. 잘 가.

Mashinadan ehtiyot bo'lib ket. Yaxshi bor.

가: 몸 조심해, 시간이 있으면 다시 올라 와.

O'zingizni ehtiyot qiling, vaqtim bo'lganida yana kel.

나: 네, 감사합니다.

Xo'p, raxmat

가: 오늘 만나서 반가웠습니다.

Bugun uchrashganimizdan xursandman.

나: 네, 저도 오늘 즐거웠습니다.

Ha, Men ham bugun xursand bo'ldim.

Avval o'rindan turgan yani, ketish holatida “먼저 갈게요” (Avval ketaman) deyiladi. Bir ish joyda ishlab, xayrlashishgan paytda “수고하셨습니다”/ “내일 뵙겠습니다” (Ertaga uchrashamiz) kabi shakllar ishlatiladi. Avval ishdan ketish holatida “먼저 들어 가겠습니다” (Avval ketaman)/ “먼저 가 보겠습니다” (Avval ketadigan bo'ldim) deyiladi.

예)

가: 죄송하지만 먼저 갈게요.

Uzr, Men ketaman.

나: 아, 다른 일이 있으면 가도 돼요.

Hm, boshqa ishing bo'lsa, ketishing mumkin.

가: 수고하셨습니다.

나: 네, 내일 뵙겠습니다.

Bo'пти, ertaga ko'rishamiz.

가: 사장님, 먼저 들어가겠습니다.

O'rtoq Boshliq, oldinroq ketayapman

나: 아니, 아직 퇴근시간이 아닌데 어디에 가는거야?

Nima? Hali ish vaqti tugagani yo'q-ku, qayerga ketayapsan?

맞선 경우

가: 죄송합니다. 먼저 가 보겠습니다.

Uzr, men ketaman.

나: 네, 조심히 들어 가세요.

Ha, ehtiyot bo'lib keting.

Maxsus holatlarda ishlatiladigan shakllar

a) Yangi yil va tug'ilgan kun tabrigida ishlatiladigan shakllar.

Koreyslarda Yangi yil tabrigi sifatida “새해 복 많이 받으세요” (Yangi yilingiz bilan) shakli eng ko'p ishlatiladi. Tug'ilgan kunga taklif olgan paytda u yerga tashrif buyurga holatda, “생일 축하합니다”(Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman)ni ko'p ishlatadi. Shunigdek, qadah ko'targanda “00을위하여” (... uchun) deb “건배” deb aytishadi, bu o'zbekchada “Oldik” ifodasiga to'g'ri keladi..

예)

가: 새해 복 많이 받으세요.

Yangi yilingiz bilan tabriklayman.

나: 새해 복 많이 받으세요.

Yangi yilingiz bilan tabriklayman.

가: 생신 축하합니다. 무병장수를 바랍니다.

Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman. Uzoq umr ko'rishingizni tilayman.

나: 네, 고맙네.

Rahmat.

가: 생일 축하해요, 오늘 하루 행복하게 보내세요.

Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman. Bu kunni baxtli o'tkazing.

나: 네, 고마워요.

Rahmat.

가: 우리 사업 더 잘 되기를 위해

Bizning ishimiz yanada rivojlanishi uchun!

나: 건배!

Oldik!

b) Mehmon taklifi va tashrifida ishlatiladigan shakllar

Uyko'rdiga mehmon taklif qilinib, ular tashrif buyurgan vaqtda mehmon avval “어서 오세요”(Xush kelibsiz) deyilgandan so'ng biroz tavozelik bilan “바쁘신데 와 주셔서 감사합니다” (Band bo'lsangizda kelganingiz uchun rahmat) deyishadi.

Uy ko'rdi sovg'asini olayotib, “그냥 오시지 무거운데 뭐하러 이런 걸 사오세요?”(Quruq kelsangiz ham bo'lardi, og'ir ekan, nima ovora bo'lib yuribsiz?) deb binmal inshadan ishlatishadi. Ovqatni tayyorlagandan so'ng uni stolga tortayotib “음식이 입에 맞을지 모르겠네요” (Ovqat mazzasi sizlarga yoqadimi yo'qmi bilmayman) deya kamtarin ifodalarni ishlatiladi.

예)

가: 어서 오세요. 뭘 드릴까요?

Xush kelibsiz. Nima beray?

나: 아줌마, 밥 한 그릇 주세요.

Xola, bir kosa guruch bering.

가: 안녕하세요? 이걸 받으세요.

Assalomu alaykum. Mana buni oling.

나: 안녕하세요? 그냥 오시지 무거운데 뭐 하러 이런 걸 사 오세요?

Assalomu alaykum. Quruq kelsangiz ham bo'lardi, og'ir ekan, nima ovora bo'lib yuribsiz?

가: 무슨 음식을 이렇게 많이 준비하셨어요?

Nima ovqatni buncha ko'p tayyorladingiz?

나: 음식이 입에 맞을지 모르겠네요.

Ovqat sizlarga yoqadi degan umiddaman.

d) Taziya bildirish va kasalko'rdida ishlatiladigan shakllar

Taziya bildirish vaqtida asosan to'xab qolish holati yani, “**뭘라고 위로의 말씀을 드려야할지.....**” (Nima deb tasalli berishni ham...) deya gap oxirini cho'zib, yoki hech narsa demaydigan holatlar mavjud.

Kasal ko'rdiga borganda kasalning ahvoli yoki kasallik turi, bemorning ahvoliga qarab boshqa-boshqa shakldagi ifodalar ishlatiladi. “**빨리 회복하시기 (나으시기) 바랍니다**” (Tezroq tuzlashingizni (sog'ayishingizni) tilayman) deyish eng ko'p ishlatiladigan shakllar hisoblanadi.

예)

가: 상심이 크시겠어요. 많이 힘드시죠?

Chuqur qayg'udaman. Hozir sizga juda ham qiyin.

나: 이렇게 찾아 와 주셔서 감사합니다.

Kelib tasalli berganingiz uchun rahmat.

가: 아이구, 할머니, 편찮으신가 봐요.

Voy, buvijon, o'zingizni yaxshi his qilayotaganga o'xshaysiz.

나:네, 허리 좀 아파요.

Ha, biroz belim og'riyapti.

가:할머니, 빨리 회복하시기를 바랍니다.

Buvijon, tezroq tuzalishingizni tilayman.

e) Do'konda ishlatiladigan salomlashish shakllari

Do'kondan narsa sotib olgan vaqtda “안녕히 계세요” (Yaxshi qoling) bilan birga “많이 파세요” (Ko'p soting /Savdongizni bersin)” kabilar deyilsa, oddiy aylanib yurgan, narsa sotib olmagan vaqtda hijolatomuz “한 바퀴 돌아보고 올게요”(Bir aylanib yana qaytib kelaman) yoki “나중에 또 올게요” (Keyinroq yana kelaman) kabilar ishlatiladi.

예)

가:여기 거스름돈입니다.

Marhamat, qaytingiz.

나:네, 감사합니다. 안녕히 계세요. 만히 파세요.

Rahmat, Yaxshi qoling. Savdongizni bersin.

가:손님, 도와 드릴까요?

Yordamim kerakmi?

나:아뇨, 그냥 보고 있는데, 나중에 또 올게요.

Yo'q, shunchaki ko'rayotgandim, keyinroq yana kelarman.

가: 안녕하세요. 손님, 오늘 우리 마트에 할인 시간입니다. 무엇이 필요하세요?

Assalomu alaykum, mijoz, bugun bizning marketimizda arzonlashtirib berish vaqti. Sizga nima kerak?

나:감사합니다. 한 바퀴 돌아보고 올게요.

Rahmat, bir aylanib yana kelamiz.

1.2. Ma'no jihatdan salomlashish shakllari turlari

Ma'no jihatdan salomlashish shakllari turlari-sog'liqni so'rash (umumiy sog'liqni so'rash, sog'liqdan xavotirlanish, tinglovchi oilasi sog'lig'i) ovqatlanganligi so'rash, hol-ahvol(shu kunlardagi holati va vaziyati), ob-havo, tashqi ko'rinish haqida aytib o'tish, 빈말 인사(Og'zaki nutq murojat shakllari)ga bo'linadi. Har bir turdagi salomlashish ifodalari orasida rasmiy holatda ko'p ishlatilgan ifodalarni birinchi o'rinda aytib o'tishga qaror qildik.

a) Sog'liqni so'rashda ishlatiladigan shakllar

Tinglovchini sog'ligini so'rashning eng oddiy usuli “그 동안 잘 지냈어요?” (Yaxshi yuribsizmi?), tinglovchi oilasining sog'ligini so'rashda “다들 잘 계시죠 (무고하 시죠)?” (Hammalari (oila a'zolarini nazarda tutmoqda) yaxshi yurishibdimi?) deyishadi.

예)

가:엔디 씨, 그 동안 잘 지냈어요?

Endi, yaxshi yuribsizmi?

나:네, 친구랑 잘 지냈어요.

Ha, do'stlarim bilan yaxshi yuribman.

가:영진 씨, 가족 다들 무고하시고 잘 계시죠?

Yongjin, oilangizdagilar hammalari yaxshimi?

나:네, 감사합니다. 다들 좋습니다.

Ha, rahmat. Hammasi yaxshi.

b) Ovqatlanganligi so'rashda ishlatiladigan shakllar

Ovqatlanganligini so'rash ifodalari “밥은 먹었니?/ 식사 /아침/점심)는 하셨어요? (먹었어요?/드셨어요?)/ 진지 잡수셨어요?” (Ovqat yedingmi?/Nonushtani /tushlikni qildingizmi/ yedingizmi?). Agar yemagan bo'lsa birga yeyishni yoki kelasi safar bir marotaba birga yeyishni taklif qilib, ya'ni tinglovchiga bo'lgan o'z samimiyatni ifodalashi mumkin.

예)

가:상현아, 밥 먹었니?

Sangxyon, ovqatlandingmi?

나:아니, 시간이 없어서 먹을 수 없어.

Yo'q, vaqtim bo'lmaganim uchun yeya olmadim.

가:그럼 먹으로 같이 가자.

Unday bo'lsa birga yegani ketdik.

가:할아버지, 진지 잡수셨어요?

Buvajon, ovqatlanib oldingizmi?

나:입맛이 없어. 나중에 먹을게.

Ishtaham yo'q, keyinroq yerman.

d) hol-ahvol so'rashda ishlatiladigan shakllar

Tinglovchining ish yoki tijorati haqida “요즘 사업 잘 돼요?”(Shu kunlarda ishlaringiz qalay?) deb so'rab yoki talabalarga “요즘 공부는 잘 되니?”(O'qishlar yaxshimi?) deya so'rashishadi..

예)

가:수미야, 요즘 공부는 잘 되니?

Sumi, o'qishlar qalay?

나:네, 좋은 성적을 받기 위해 노력해요.

Yaxshi , muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qilayapman.

e) ob-havo haqida aytishda ishlatiladigan shakllar

Ob-havo haqida aytib o'tiladigan ifodalar “오늘 날씨가 참 좋네요”(Bugun havo juda yaxshi) kabilar bo'lib, shu kunning ob-havosiga qarab “오늘 날씨 춥죠(덥죠)?”(Bugun havo sovuq(issiq)/ “비(눈)가 많이 오네요.”(Yomg'ir(qor) ko'p yog'ayapti)/“바람이 많이 부네요“(Shamol kuchli esayapti) kabilar ishlatiladi.

예)

가:오늘 날씨가 참 좋네요.

Bugun havo juda yaxshi.

나:오늘 같이 데이트하러 갈까요?

Bugun birgalikda uchrashuvga bormaymizmi?

가:오늘 날씨가 춥죠?

Bugun havo sovuq, shunday emasmi?

나:이제 정말 겨울이 된 것 같아요.

Endi haqiqiy qish kelganga o'xshaydi.

f) Tashqi ko'rinish haqida aytishda ishlatiladigan shakllar

Yaqin munosabatdagi kishiga tashqi ko'rinishi haqida to'xtalib o'tadigan ifodalar juda ko'p. Asosan, “얼굴이 좋아 보이네요(yuzingiz chiroyli ekan/Ko'rinishingiz a'lo darajada)/ 얼굴이 많이 예뻐졌네요”(Juda ochilib ketibsiz) kabi ifodalar orqali tinglovchiga o'z qiziqishni ifodalaydi.

예)

가:얼굴이 많이 예뻐졌네요.

Ko'rinishingiz a'lo darajada.

나:네, 감사합니다

Rahmat.

1.3 빈말 인사- Og'zaki nutq murojat shakllari

빈말 인사- Og'zaki nutq murojat shakllari* koreys salomlashish ifodasining xususiyati deya olishimiz mumkin. Oldinda to'xtalib o'tilganidek xayrlashish vaqtida “연락 드릴게요” (Aloqaga chiqaman) / 전화할게요 (Telefon qilaman) yoki “언제 밥 한번 먹어요?” (Qachon bir o'tiramiz?) deya o'sha ishni amalga oshirish haqida majburlash emas, ko'nglidagini ifodalashni 빈말 인사 deymiz. Shuningdek, uyko'rdi sovg'asini olayotib, ichida (ko'nglida) o'ziga yaxshi bo'lsada, uzrli ko'ngil bilan “그냥 오시지 무거운데 뭐하러 이런 걸 사오세요?”(Quruq kelsangiz ham bo'lar edi, nima ovora bo'lib yuribsiz?) deb, do'kondan chiqayotib, yana qaytib kelmasada uzrli ko'ngil bilan “한 바퀴 돌아 보고 올게요”(Bir aylanib yana kelaman) deyish bularning hammasi 빈말 인사 salomlashish shakllaridir. Yuqoridagi 상황별 분류(Vaziyat jihatdan turlar) va 내용별 분류(Ma'no jihatdan turlar)ning tarkibiy qismlari bo'lgan uchrashgan vaqtida, xayrlasish vaqtida, mehmon taklifi vaqtida, do'kondan chiqish vaqtida, ovqat taklifi haqida kabi shakllarini ifodalovchi shakllar orasida 빈말 인사 shakllari mavjud. Quyida bularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

1 Uchrashgan vaqtda

Koreyslar uchrashgan vaqtda “안녕(하세요)?” (Assalomu alaykum) deb salomlashsada, biror sababga ko'ra har kuni uchrashadiganlar 빈말 인사 shakllari bilan “밥을 먹었니?”/ ”식사 (아침/ 점심)은 하셨어요? (먹었어요?/ 드셨어요?)”/* “진지 잡수셨어요?” (Ovqatlandingizmi?/ Nonushta /tushlik qildingizmi?) deya tinglovchi ovqatlanganligini so'rash holati ko'p. Yemagan bo'lsa birga yeyishni ham taklif qilib, haqiqatdan ham ovqat yegan- yemaganligini qiziqib so'rash ma'nosida

*Keyingi o'rinlarda faqat 빈말 인사 deb ko'rsatilgan

ishlatilmaydi. Haqiqatdan ham ovqatlaniganligini so'ramasdan tinglovchi haqida sog'ligi va unga bo'lgan qiziqishini ifodalaydigan 빈말 인사 shakllari hisoblanadi.

2 Xayrlalish vaqtida

Koreyslar xayrlalish vaqtida, umuman, “안녕히 가세요”(Yaxshi boring) deya xayrlashsada, 빈말 인사 orqali biror narsaga va'da berish yoki biror narsa qilish ma'nosini yuklaydi. “나중에 /다음에 뵈겠습니다.”(Keyinroq /kelasi safar uchrashamiz) “나중에 전화할게.”(Keyinroq qo'ng'iroq qilaman)/ “다음에 연락드릴게요.”(Keyinroq aloqaga chiqaman)/ “나중에 밥 한번 먹자.”(Kelasi safar birga ovqatlanaylik) / “나중에 술 한 잔 하자”(Keyinroq bir birgalikda ichaylik) kabilar ko'p foydalaniladi. Bunday ifodalar albatta keyin xabarlashishi yoki birga ovqatlanishni emas balki oddiygina o'z samimiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunda bajarilishi shart bo'lmagan o'zida o'z hissiyotini ifodalayotgan 빈말 인사 shakllari deya olish mumkin.

3 Mehmon tashrifi vaqtida

Koreyslar uyga mehmon kelgan vaqtda odatdagidek “어서 오세요”(Xush kelibsiz) deya salomlashsada, qo'shimcha qilib “바쁘신데 와 주셔서 감사합니다”(Band bo'lsangizda kelganingiz uchun rahmat) deydi. Uning holati tartibsiz bo'lmasada hamma joy toza bo'lsada, “이러한 누추한 곳에 와 주셔서 감사합니다”(Bunday tartibsiz (iflos) uyga kelganingiz uchun rahmat) deya kamtarlik bilan 빈말 인사 lardan foydalanadi. Ammo shu kunlarda koreyslar istiqomat qiluvchi uy-maskanlar ko'rinishi yaxshilanganligi tufayli nafaqat yoshlar balki qarilar ham bunday 빈말 인사lar shakllaridan deyarli foydalanmaydilar.

4 Sovg'ani olish vaqtida

Koreyslar uyko'rdiga taklif qilgan mehmonlari kelgan vaqtida mehmonlar olib kelgan sovg'ani olayotib, “그냥 오시지 무거운데 뭐 하러 이런 걸 사 오세요?”(Quruq kelsangiz ham bo'lar edi bunday og'ir sovg'ani ko'tarib ovora bo'lib yuribsiz?) deya bo'sh so'z shaklidan foydalanadi. Shu kunlarda (hozirda) “고마워요. 내가 갖고 싶었던 건데”(Rahmat, men xohlagan narsa edi) deya o'z hissiyatini to'g'ri va ochiq ifodalaydigan holat ham mavjud.

5Ovqatga taklif vaqtida

Koreyslar mehmonlarni taklif qilib, mehmonlar uchun mazzali ovqat tayyorlab stolga keltirib qo'yganda “음식이 입에 맞을지 모르겠네요.” (Ovqat mazasi sizlarga yoqadimi yo'qmi bilmayman) deya, ko'p ovqat tayyorlagan holatda ham “차린 건 없지만 많이 드세요”(Tayyorlangan narsalar yo'q bo'lsada, ko'p yeying) deya kamtarona shakldan foydalanishadi.

6Do'kondan chiqish vaqtida

Koreyslar do'kondan chiqish vaqtida narsa sotib olgan holatda “안녕히 계세요. 많이 파세요.”(Yaxshi qoling. Ko'p soting (savdongizni bersin) deya xayrlashsada, shunchaki aylanib yurgan hech narsa sotib olmagan holatda o'zining uzrli qalbini ifodalash maqsadida yana shu do'konga qaytib kelmasada, “한 바퀴 돌아보고 올게요”(Bir aylanib yana kelaman) yoki “나중에 또 올게요”(Keyinroq yana kelaman) deyish holati ko'pincha uchraydi. Bunda va'dasiga rioya qilish shart emasligi 빈말 인사lar shakliga kiradi deyish mumkin.

빈말 인사 shakllarining tarixiy va madaniy xususiyatlari

Yuqorida 빈말 인사 salomlashish shakllarining ishlatilish holatlarini ko'rib

chiqqan holatda quyida 빈말 인사 shakllarini madaniy va tarixiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Ovqat haqidagi qarash

Avval aytib o'tilganidek, koreys salomlashish ifodalari orasida ovqatlanganligini so'rash haqida shakllar ko'p. “식사는 하셨어요?” dan tortib, ovqat vaqtiga qarab “아침 드셨어요?”, “점심 드셨어요?” va “저녁 드셨어요?” deya so'raladi. Ammo bu haqiqatdan ovqatlanganini bilishga qiziqish emas balki tinglovchi haqidagi qiziqishini shu shaklda ifodalashini anglatadi. Keng ma'noda buni 빈말 인사 deya olamiz. Koreys xalqi guruch va ovqatga etiborli madaniyatga egaligi tufayli tinglovchi haqidagi etibor va qiziqishini, his-tuyg'usini “Ovqatlandingmi?” deya so'rab ifodalaydi. Bu tarixdan urush va qiyinchiliklarni boshdan kechirayotagan bir vaqtda oziq-ovqat masalasi mushkul vaziyatda ovqat muhimligini ko'rsatib bergan. Hozirda bunday vaziyat hukm surmasada, bugungi kunda ham bunday salomlashish shakllarini afzal ko'rib, ishlatib kelinadi.

His-tuyg'u haqida qarash

Koreyslar xayrlashish vaqtida “안녕히 가세요” bilan birga “다음에 또 뵙겠습니다/나중에 연락드릴게요 (전화할게요)” deya xayrlashadi. Yana uchrasha olmasada, xabarlasha olmasada bunday xayrlashishni ketidan qo'shib ishlatiladigan shakllar koreyslar his-tuyg'usini ifodalab, birdaniga aloqalarni uza olmaydigan xalq ekanligini ko'rsatib beradi. Bu esa insonlar o'rtasidagi munosabatlar ko'rsatib beruvchi salomlashish shakli deya olish mumkin. Ammo bunga boshqa jihatdan qarasaq, tinglovchi bilan yana uchrashgan holatda qilgan munosabati uning holati va ishiga yordam ma'nosini ifodalaydi.

G'urur haqida qarash

Koreys tilida salomlashish shakllari orasida 빈말 인사 ko'p bo'lsada bu kabi etikali ifodalar ko'pi koreys xalqining yuzi(g'ururi)ga jiddiy ahamiyat berganligi

tufayli. Masalan, koreyslar do'kondan chiqayotib yana qaytib kelmasada “한 바퀴 돌아보고 올게요” yoki “나중에 또 올게요” kabi ifodalar o'sha vaqtdagi vaziyat(holat)dan chiqish uchun qo'llaniladi. Shu orqali sotuvchi ko'nglini ham qoldirmay, o'zini noqulay vaziyatdan olib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yuqoridagi shakllarni ifodalash orqali koreyslar o'z g'ururini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kamtarlik haqida qarash.

Koreys salomlashish ifodalari orasida 빈말 인사ning ko'pligining yana bir sababi koreys xalqining kamtarligi deya olish mumkin. Stolning oyog'i sinadigan darajada ko'p ovqat tayyorlagan bo'lsada, “차린 건 없지만 많이 드세요”deyishi yoki chin dildan ovqat tayyorlab qo'ysada “맛은 없지만 많이 드세요”deya gapiradi. Bugungi kunda biroz o'zgargan bo'lsada qadimdan kamtarlilik eng yaxshi eng yaxshi hislat deya qaralib kelingan.

Ammo bunday xususiyatlar ham davrga qarab boshqacha o'zgarishlar paydo bo'lib qadimgi holati sekin-sekin kuchsizlana borayotganini ko'rib, kamtarlikni ifodalaydigan 빈말 인사shakllarini bugungi yoshlar orasida bora-bora foydalanilmayotgan holatga guvohi bo'lishimiz mumkin.

II BOB. KOREYS SALOMLASHISH SHAKLLARINING FOYDALANISH HOLATLARI.

2.1. Savol-javob haqida umumiy malumotlar.

Yuqorida biz salomlashish ifodalaring bir ma'noda ammo turli shaklda kelishiga guvoh bo'ldik. Bu narsa shuni ko'rsatadiki, ifodalarning jins va yosh jihatdan farqlanishi, ularning zamon va makon jihatdan farqlanishini namoyon qiladi.

Shuning uchun koreyslar umuman ko'p ishlatadigan salomlashish ifodalar ro'yxatini havola qildik. Buni biz aslida koreyslar bularni qanday foydalanishini savol-javob orqali yosh jihatdan, jinsiy jihatdan foydalanish holatini ko'rib chiqdik.

Savol-javob uchun maxsus guruhlar tuzilmasdan, balki ixtiyoriy ravishda so'rash asosida olib borildi. Savol javobda ayol-erkaklar har biri 80 kishilik 160 ta odamni obyektiv olib, yosh jihatdan 10 yosh, 20yosh, 30-40yosh, 50yosh va undan kattalarga bo'lib, savol-javob o'tkazildi.

2.2. Savol-javob natijalari tahlili.

Yosh va jinsiy jihatdan eng afzal ko'radigan va ko'p ishlatadigan 1-o'rinda salomlashish ifodalarini tekshirib, (2ta holatni havola qilib bo'ldik) 1, 2, 3- jadvallar orqali tartibga keltirib, yosh va jinsini ko'rsatilgan punktlarni ko'rsatib o'tdik.

1-jadvalda chiqqan ma'noga ega holatni aniqlashtirsak, umumiy 10 yosh bilan 20 yoshdagilar o'xshash shakldagi ifodalarni ishlatish holatni ko'rinib, 30 yosh va undan kattalarning ishlatilish farqi ko'rsatilgan. Oldin ancha vaqt uchrashmagan holatda 10 va 20 yoshliklar “오랜만이네요”(Ko'rishmaganimizga ancha bo'ldi) ni afzal ko'rib ishlatishsa, 30 va undan yuqori “그 동안 별일(별고) 없으셨어요”(Bu vaqt davomida biror jiddiy narsa sodir bo'lmadimi?)ni afzal ko'rib, yosh o'rtasidagi farq ko'rsatib berilgan. Ayol va erkak yani, jinsiy jihatdan foydalanish holati farqi ham ko'rsatilib, 30 yosh va undan katta yoshdagi erkaklar ayollarga qaraganda “그 동안 별일 없으셨어요” (Bu vaqt davomida biror jiddiy narsa sodir bo'lmadimi?) ko'proq ishlatilishi ko'rsatilgan. Umuman yoshlar vaziyat ifodalarini qizziqarli shaklda qo'llaydi. Yoshi katta tinglovchini sog'ligini so'rash vaqtida erkaklar yozma ifodada shaklidagi “그 동안 별일 없으셨어요?” (Bu vaqtda biror jiddiy narsa sodir bo'lmadimi?) ni afzal ko'rib, ko'proq so'zlashuv tili ifodasi, ayollar esa og'zaki ifoda shaklidagi “그 동안 잘 지내셨어요?”(Yaxshi yuribsizmi?) ni afzal ko'rishi ochib berilgan.

Tasodifan uchrashib qolganda 10 yosh va 20 yosh “아니 이게 누구냐?”(E, bu kim?) shaklini afzal ko’rib, 30yosh va undan kattalar “여긴 어떤 일이에요?”(Bu yerda nima qilib yuribsan?) shaklini afzal ko’rishi ochib berilgan. 10, 20, 30 yosh va undan katta yoshdagilar farqi ko’rsatib berilib, foydalanish ko’rinishlarining farqi ko’rsatilib, shu bilan bir vaqtda ayol va erkaklar ishlatadigan holatlar ham ko’rsatilgan. 10, 20, 50, 60 yosh o’g’il bola bo’lgan holatda “아니 이게 누구냐?”(E, bu kim?) ni afzal ko’rishi namoyon bo’lgandi. Yoshlar “아니 이게 누구냐?”(E, bu kim?) deyish bilan birga uchrashgan holat haqidagi ifodani salomlashish shakli qilib, yoshi kattalar “여긴 어떤 일이에요?” (Bu yerda nima qilib yuribsan?) deyish bilan birga hol-ahvolni so’rash shaklida salomlashish deya tahlil qilinib, yoshi kattalarda ham qizlar orasida yana bunday holatlar ham mavjud.

Xayrlashish vaqtida 10, 20 yoshdagilar “안녕히 가세요”(Yaxshi boring) shaklini afzal ko’rib, 30yoshdan keyin “다음에 뵈겠습니다”(Kelasi safar uchrashamiz) ni afzal ko’rib, yoshlar orasidagi farq namoyon bo’ladi. Jinslar orasidagi farq uncha katta bo’lmasada 20 yosh erkaklar “다음에 뵈겠습니다” (Kelasi safar uchrashamiz) ni yanada afzal ko’rib, yoshlarga nisbatan yoshi kattalar, ayollarga nisbatan erkaklar ko’proq yozma til ifodalarini afzal ko’rishini bilib olsa bo’ladi.

“표-1” 한국어의 고정적인 인사 표현 사용 양상.

Koreys tilida rasmiy salomlashish shakllarini ishlatilish holatlari.

		10 대	20 대	30-40 대	50-60 대이후
일 상 적 인 상 황 별 인 사 표 현	(1) 처음 만남 경우	전체-안녕하세요? 남-안녕하세요? 여-안녕하세요?	전체-안녕하세요? 남-안녕하세요? 여-안녕하세요?	전체-안녕하세요? 남-안녕하세요? 여-안녕하세요?	전체-안녕하세요? 남-안녕하세요? 여-안녕하세요?
	(2) 오랜만에 만남 경우	전체-오랜만이네요 남-그 동안 잘 지내셨 어요? / 오랜만이네요 이게 얼마 만이에요 여-오랜만이네요	전체-오랜만이네요 남-그 동안 잘 지내 셨어요 여-오랜만이네요	전체-그 동안 별일 (별고) 없 으셨어요 남-그 동안 별일 (별고) 없 으셨어요 여-그 동안 잘 지내셨어요	전체-오랜만이네요 남-그 동안 별일 (별고) 없으셨어요. 오랜만이네요 여-그동안 잘 지내셨 어요 /오랜만이네요
	(3) 우연히 만남 경우	전체-아니 이게 누구야? 남-아니 이게 누구야? 여-어디 가세요	전체-아니 이게 누구야? 남-아니 이게 누구야? 여-여긴 어떤 일이 세요?	전체-여긴 어떤 일이세요? 남-여긴 어떤 일이세요? 여-여긴 어떤 일이세요?	전체-여긴 어떤 일이세 요? 남-아니 이게 누구야? 여-여긴 어떤 일이 세요?

	(4) 헤어질 때	전체- 안녕히 가세요 남- 안녕히 가세요 여- 안녕히 가세요	전체- 안녕히 가세요 남- 다음에 뵙겠습니다 여- 안녕히 가세요	전체- 다음에 뵙겠습니다 남- 다음에 뵙겠습니다 여- 다음에 뵙겠습니다	전체-다음에 뵙겠 습니다 남-다음에 뵙겠습 니다 여-다음에 뵙겠습 니다
--	-----------------	---	---	---	---

Quyida 2-jadvalda maxsus holatlarda salomlashish ifodalarining ishlatilish holatlari ko'rsatib berilgan.

“표 -2” 한국어의 특정한 상황별 인사 표현 사용 양상

	10대	20 대	30-40 대	50-60대이후
--	-----	------	---------	----------

(1) 신년 인사	전체-새해 복 많이 받으세요 남-새해 복 많이 받으세요 여-새해 복 많이 받으세요	전체-새해 복 많이 받으세요 남-새해 복 많이 받으세요 여-새해 복 많이 받으세요	전체-새해 복 많이 받으 세요 남-새해 복 많이 받으세요 여-새해 복 많이 받으세요	전체-새해 복 많이 받으세요 남-새해 복 많이 받으세요 여-새해 복 많이 받으세요
(2) 생일 축하 인사	전체-생일 축하합니다 남-생일 축하합니다 여-생일 축하합니다	전체-생일 축하합니다 남-생일 축하합니다 여-생일 축하합니다	전체-생일 축하합니다 남-생일 축하합니다 여-생일 축하합니다	전체-생일 축하합니다 남-생일 축하합니다 여-생일 축하합니다
(3) 집들이 인사	전체-어서 오세요 남-어서 오세요 여-어서 오세요	전체-어서 오세요 남-어서 오세요 여-어서 오세요	전체-어서 오세요 남-어서 오세요 여-어서 오세요	전체-어서 오세요 남-어서 오세요 여-어서 오세요

	(4) 음식 초대 인사	<p>전체-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>남-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>여-음식이 입에 맞을지 모르겠어요 / 맛은 없지만 많이 드세요</p>	<p>전체-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>남-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>여-음식이 입에 맞을지 모르겠어요 / 맛은 없지만 많이 드세요</p>	<p>전체-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>남-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>여-차린 건 없지만 많이 드세요</p>	<p>전체-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p> <p>남- 차린 건 없지만 많이 드세요</p> <p>여-음식이 입에 맞을지 모르겠어요</p>
	(5) 문상 갔을 때	<p>전체-아무 말도 하지 않음</p> <p>남-고인의 명복을 빕니다</p> <p>여-아무 말도 하지 않음</p>	<p>전체-뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지</p> <p>남-뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지</p> <p>여-아무말도 하지 않음</p>	<p>전체-뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지</p> <p>남-뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지</p> <p>여- 뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지</p>	<p>전체-뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지 /</p> <p>상심이 크시겠습니다</p> <p>남-상심이 크시겠습니다</p> <p>여-뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지</p>

	(6) 병문안 갔을 때	전체-빨리 회복 하시기 바랍니다 남-그래도 이 만하기에 다행이네요 여-빨리 회복하시기 바랍니다	전체-빨리 회복하시기 바랍니다 남-기운 내세요 여-빨리 회복하시기 바랍니다	전체-빨리 회복하시 기 바랍니다 남-빨리 회복하시기 바랍니다 여-빨리 회복하시기 바랍니다	전체-빨리 회복하시기 바랍니다 남-빨리 회복하시기 바랍니다 여-빨리 회복하시기 바랍니다
	(7) 건배할 때	전체-건배 남-건배 여-건배	전체-건배 남-건배 여-건배	전체-00을위하여 남-건배/00을위하여 여-00을위하여	전체-00을위하여 남-00을위하여 여-00을위하여
	(8) 상점에서 나올때	전체-한 바퀴 돌보고 올게요 남-나중에 또 올게요 여-한 바퀴 돌아보고 올게요	전체-한 바퀴 돌아 보고 올게요 남-한 바퀴 돌아보고 올게요 여-한 바퀴 돌아보고 올게요	전체-나중에 또 올게요 남-나중에 또 올게요 여-나중에 또 올게요	전체-나중에 또 올게요 남-나중에 또 올게요 여-한 바퀴 돌아보고 올게요

Avval, Yangi yil yoki tug'ilgan kun tabrigi ifodalari uyko'rdi va taklif ifodalari yosh va jins jihatdan farqlari sezilarli darajada ko'rinmagan. Ovqatni mehmonlar oldiga qo'yarkan, umuman, “음식이 입에 맞을지 모르겠어요.”(Ovqat sizlarga yoqadimi yo'qmi bilmayman) ni afzal ko'rib, yoshi katta holatda “차린 건 없지만 많이 드세요”(Tayyorlagan narsalar kam bo'lsada ko'p yeying) shaklini ham afzal ko'rishi namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda yoshlar bunday eski (modadan qolgan) va bo'sh salomlashish ifodalaridan ko'ra tog'ri shakl va ifodalardan foydalanib, yaqin munosabat uyg'otadigan darajadagi ifodalardan foydalanib, foydalanish holati o'zgarib bormoqda deya olamiz.

Taziyaga borgan vaqtda “뭐라고 위로의 말씀을 드려야 할지...”(Nima deb tasalli berishni ham bilmayman....) deya gap oxirini cho'zadigan holatlar juda ko'p bo'lib, 50-60 yoshdagi erkaklar yozuv tili shaklida ifodalab, “상심이 크시겠습니다”(Chuqur qayg'uga botdim) shaklini ko'p ishlatilishi namoyon bo'lib, yoshi katta erkaklar yozuv tilidan ko'p foydalanishini bilib olsa bo'ladi. Yoshi kichiklar asosan hech narsa demaslikni afzal ko'rib, 10-20 yoshdagi qizlar bunday javob berib, qancha yosh bo'lsa taziyaga borish ehtimoli shuncha kamligi tufayli nima deyishni bilmasa shunday qiladi.

Kasalko'rdiga borgan vaqtda salomlashish ifodalari yosh va jins orasida unchalik bilinmaydi.

Aroq ichish vaqtida 10, 20, 30 yoshdagi va undan kattalar orasidagi farq aniq va yaqqol ko'rinib, 10, 20 yoshdagilar “건배”(Oldik) shaklini afzal ko'rsa, 30 va undan yuqori yoshdagilar “...을 위하여”(OOuchun) ni afzal ko'radilar.

Do'kondan narsa sotib olmay shunchaki aylanib yurgan vaqtda 10, 20 yoshdagilar “한 바퀴 돌아보고 올게요”(Bir aylanib yana kelaman) ni afzal ko'rib, 30 va undan yuqori yoshdagilar “나중에 또 올게요”(Keyinroq yana kelaman) shaklini afzal ko'rishadi. Umuman, o'g'il bolalar “나중에 또 올게요”(Keyinroq yana kelaman)ni

afzal ko'rib, qizlar “한 바퀴 돌아보고 올게요”(Bir aylanib yana kelaman)ni afzal ko'rishi namoyon bo'ladi.

Quyidagi 3-jadval koreys salomlashish ifodalarining ma'nosiga ko'ra eng ko'p foydalanishi ko'rsatilgan jadvaldir. Tinglovchi yoki tinglovchi oilasi sog'ligini so'rashda, ovqatlanmagan-ovqatlanmaganligini va ob-havo haqida aytib o'tiladigan ifodalarda yosh, jins jihatdan farqlar ko'rinmasada, tashqi ko'rinish haqida aytib o'tganda yosh jihatdan farqlar ko'rinib, 10, 20 yoshdagilar “살이 좀 빠진 것 같다”(Ozganga o'xshaysiz) shaklini afzal ko'rib, 30 va undan kattalar “얼굴이 좋아 보이네요”(Yuzingiz chiroyli ko'rinmoqda (ochilib ketibsiz)) shaklini afzal ko'rishi namoyon bo'ladi. Yosh bo'lgani sari parhezga qiziqishi ortishi bo'lgani kabi bunday holat yuzaga chiqishi aniqlangan.

Koreyslar afzal ko'rib ishlatadigan salomlashish shakllarining ma'nosini ko'rsangiz, tinglovchi sog'ligini so'rash 1-o'rinda, hol-ahvolini so'rash 2-o'rinda bo'lib, yosh va jins jihatdan sog'lik haqida so'rashish eng ko'p qo'llanilishini bilib olasiz.

30, 40 yoshdagi o'g'il bolalar hol-ahvol haqida so'rashni afzal ko'radi. 20 yoshdagi o'g'il bolalar xayrlashish vaqtida bo'sh salomlashish ifodasi orqali “Bir ichmaymizmi?” shaklidagi ichishga taklifni afzal ko'rishi yosh va jins farqini ko'satib beradigan g'alati va qiziqarli savol-javob natijasi deya olish mumkin.

<<표-3>>한국어 인사 표현의 내용

		10대	20 대	30-40 대	50-60대 이상
(1) 상대의 안부 확인		전체-그 동안 잘 지내셨 어요? 남-그 동안 잘 지내셨어요? 여-그 동안 잘 지내 셨어요?	전체-그 동안 잘 지내셨 어요? 남-그 동안 잘 지내셨어요? 여-그 동안 잘 지내셨어요?	전체-그 동안 잘 지내셨어요 남-그 동안 잘 지내셨 어요 여-그 동안 잘 지내셨 어요	전체-그 동안 잘 지내셨 어요? 남-그 동안 잘 지내셨 어요? 여-그 동안 잘 지내셨 어요?
(2) 상대방 가족의 안부 확인		전체-다들 잘 계시죠(다들 무고하시?) 남-다들 잘 계시죠? 여-다들 잘 계시죠?	전체-다들 잘 계시죠(다들 무고하시죠?) 남-다들 잘 계시죠? 여-다들 잘 계시죠?	전체-다들 잘 계시죠(다들 무고하시죠?) 남-다들 잘 계시죠? 여-다들 잘 계시진?	전체- 다들 잘 계시 죠? (다들 무고하시죠?) 남-다들 잘 계시 죠? 여-다들 잘 계시 죠?
(3) 식사 확인	여부	전체-식사는 하셨어요? 남-식사는 하셨어요? 여-식사는 하셨어요?	전체-식사는 하셨어요? 남-식시는 하셨어요? 여-식사는 하셨어?	전체-식사는 하셨어요? 남-식사는 하셨어요? 여-식사는 하셨어요?	전체-식사는 하셨 어요? 남-식사는 하셨어 요? 여-식사는 하셨 어요?

(4) 날씨 언급	전체-오늘 날씨가 참 좋네요 남-오늘 날씨가 참 좋네요 여-오늘 날씨가 참 좋네요	전체-오늘 날씨가 참 좋네요 남-오늘 날씨가 참 좋네요 여-오늘 날씨가 참 좋네요 여-오늘 날씨가 참 좋네요?	전체-오늘 날씨가 참 좋네요 남-오늘 날씨가 참 좋네요 여-오늘 날씨가 참 좋네요	전체-오늘 날씨가 참 좋네요 남-오늘 날씨가 참 좋네요 여-오늘 날씨가 참 좋네요
(5) 외모 언급	전체-살이 좀 빠진 것 같다/ 얼굴이 많이 예뻐졌네. 남-살이 좀 빠진 것 같다 여-얼굴이 많이 예뻐졌네.	전체-살이 좀 빠진 것 같다 남-얼굴이 많이 예뻐졌네. 여-살이 좀 빠진 것 같다	전체-얼굴이 좋아 보이네요 남-얼굴이 좋아 보이네요 여-얼굴이 좋아 보이네요	전체-얼굴이 좋아 보이네요 남-얼굴이 좋아 보이네요 여-얼굴이 많이 예뻐졌네
(6) 인사 표현의 내용 선호도	전체-상대방의 안부 확인 남-상대방의 안부 확인 여-상대방의 안부 확인	전체-상대방의 안부 확인 남-상대방의 안부 확인 여-상대방의 안부 확인	전체-상대방의 안부 확인 남-근황 확인 여-상대방의 안부 확인	전체-상대방의 안부 확인 남-상대방의 안부 확인 여-상대방의 안부 확인
(7) 헤어질때하는 빈말 인사 표현	전체-연락드릴게요/ 전화할게요 남-연락드릴게요/ 전화할게요 여-연락드릴게요/ 전화할게요	전체-연락드릴게요/ 전화할게요 남-언제 술 한 잔 해이죠? 여-연락드릴게요/ 전화할게요	전체-연락드릴게요/ 전화할게요 남-연락드릴게요/ 전화할게요 여-연락드릴게요/ 전화할게요	전체-연락드릴게요/ 전화할게요 남-연락드릴게요/ 전화할게요 여-연락드릴게요/ 전화할게요

빈말 인사 shakllarining foydalanish holati

Koreys salomlashish shakllari orasida qay biri 빈말 인사 shakllari ekanligi bilish maqsadida kichik savol-javob o'tkazildi. Bunda yuqoridagi obyektiv sifatida olingan shaxslar emas, balki boshqa guruh va shaxslar ishtirok etdi.

Savol-javob natijalariga asoslanib yosh, jins jihatdan eng afzal ko'rib ishlatiladigan 빈말 인사 shakllari tekshirib ko'rildi. 빈말 인사 va 빈말 인사 bo'lmagan ifodalarni solishtirish maqsadida 빈말 인사 ekanligani yoki yo'qligini so'rab ko'rib, eng ko'p ishlatiladiganlarini tanlab, 1dan boshlab quyidagi jadvalda havola qildik.(% teng bir xil bo'lgan holatda 2sini ham havola qildik va /ajratdik)

Umumiy jihatdan 10 va 20 yoshdagilar foydalanadigan holati bir xil bo'lib, 30 va undan katta bo'lganlar orasida farq ko'rinadi. Birinchi bor uchrashgan vaqtda salomlashish shakli 빈말 인사 bo'lmagan “안녕하세요?”(Assalomu alaykum) dominant sifatida ko'p qo'llanilib, doimiy har kuni uchrashadiganlar orasida “밥 먹었니?”(Ovqatlandingmi?) ni tez-tez ishlatadigan 빈말 인사 deyish mumkin.

Xayrlashish vaqtida ishlatiladigan shakl sifatida 빈말 인사 bo'lmagan “안녕히 가(계)세요”(Yaxshi boring (qoling)) dominant sifatida ko'p qo'llanilib, bundan tashqari yoshidan qat'iy nazar “나중에 뵈겠습니다” (Keyinroq uchrashamiz) eng ko'p foydalaniladi. Shuningdek, 3- tartib (kompozitsya)da yosh jihatdan farq ko'rsatilib, 10 yoshdagilar “다음에 연락드릴게요/나중에 전화할게요”(Keyin aloqaga chiqaman/Keyinroq qo'ng'iroq qilaman) dan ko'p foydalanib, 20yoshdagilar “오늘 만나서 반가웠습니다” (Bugun uchrashganimdan xursandman) shaklini afzal ko'rishi, 30 yoshdan keyingilar “언제 술이나 한 잔 하자 /밥이나 한 번 먹자” (Qachon bir aroq ichamiz?/Qachon bir birga ovqatlanamiz?) shaklidagi 빈말 인사 dan foydalanishi ma'lum bo'lib, bu yosh jihatdan farqni ko'rsatib beruvchi qizziqarli savol-javob natijasi deyish mumkin.

<<표-4>> 상황별빈말 인사 표현의 사용 양상

			전체	10 대	20 대	30-40대	50-60대이후
상황별 빈말	헤어질 때		안녕히가(계) 세요. (52 명/32%)	안녕히가(계)세요. (20 명/50%)	안녕히가(계)세 요. (15 명/38%)	나중에 (다음에) 뵙겠습니다. (14 명/35%)	나중에 (다음에) 뵙겠습니다. (18 명/45%)
		2	나중에 (다음에) 뵙겠습니다. (49 명/30%)	나중에 (다음에) 뵙겠습니다. (10 명/25%)	나중에 (다음에) 뵙겠습니다. (7 명/18%)	안녕히가(계)세요 (10 명/25%)	안녕히가(계)세요. (7 명/18%)
		3	나중에 술 한 잔 해요 (.밥 한번 먹어요.) (20 명/12%)	다음에 연락 드릴게요(나중에 전화할게요.) (6 명/15%)	오늘 만나서 반가웠습니다. (7 명/18%)	나중에 술 한잔 해요. (밥 한번 먹어요.) (7 명/18%)	나중에 술 한잔 해요. (밥 한번 먹어요.) (6 명/15%)
	집들이 초대	1	어서오세요. (97 명/60%)	어서오세요. (31 명/78%)	어서오세요. (24 명/60%)	어서오세요. (21 명/53%)	어서오세요. (21 명/53%)

	인사	2	바쁘신데 와 주셔서 감사합니다.	들어오세요. 무거운데 뭘 이런걸 사오세요.	바쁘신데 와 주셔서 감사합니다.	바쁘신데와 주셔서 감사합니다.	바쁘신데와 주셔서 감사합니다.
인사 표현	음식 초대	1	음식이 입에 맞을지 모르겠네요. (78 명/48%)	음식이 입에 맞을지 모르겠네요. (21 명/53%)	음식이 입에 맞을지 모르겠네요. (20 명/50%)	음식이 입에 맞을지 모르겠네요. (20 명/50%)	음식이 입에 맞을지 모르겠네요. (17 명/43%)
		2	차린 건 없지만 많이 드세요. (61 명/38%)	차린 건 없지만 많이 드세요. (10 명/25%)	차린 건 없지만 많이 드세요. (17 명/43%)	차린 건 없지만 많이 드세요. (19 명/48%)	차린 건 없지만 많이 드세요. (15 명/38%)
	상 점 에 서	1	한 바퀴 돌아보고 올게요. (67 명/41%)	한 바퀴 돌아보고 올게요. (15 명/38%)	한 바퀴 돌아보고 올게요. (20 명/50%)	나중에 또 올게요. (22 명/55%)	나중에 또 올게요. (19 명/48%)
		2	나중에 또 올게요. (62 명/38%)	안녕히 계세요. (14 명/35%)	나중에 또 올게요. (11 명/28%)	한 바퀴 돌아보고 올게요. (17 명/43%)	한 바퀴 돌아보고 올게요. (15 명/38%)

Uyko'rdiga taklif qilingan mehmonnig tashrif buyurgandagi salomlashish ifodasini yosh va jins jihatdan bo'lmasdan, umumiy qilib 빈말 인사 shakli bo'lmagan “어서 오세요”(Xush kelibsiz) shaklini eng ko'p ishlatishadi. Unga qo'shimcha qilib “바쁘신데 와 주셔서 감사합니다”(Band bo'lsangizda kelganingiz uchun rahmat) shunga o'xshash 빈말 인사 shakllaridan foydaladi. “이렇게 누춘한 곳까지 와 주셔서 감사합니다” (Bunday tartibsiz (iflos) uyga kelganingiz uchun rahmat) kabi shakllar bugungi kunda deyarli foydalanilmaydigan shakllar hisoblanadi.

Uyga mehmon kelgan holatda ular oldiga ovqat tortishda, umuman, “음식이 입이 맞을지 잘 모르겠네요” (Ovqat sizlarga yoqadimi yo'qmi bilmayman) ko'p ishlatilib, “차린 건 없지만 많이 드세요” (Tayyorlangan narsa yo'q bo'lsada, ko'p yeying) ham bir xil ma'noda ishlatilishi ma'lum. Shu kunlarda yoshlar orasida “차린 건 없지만 많이 드세요” (Tayyorlangan narsa yo'q bo'lsada, ko'p yeying) shaklini urfdan qolgan shakl sifatida qabul qilib, kamtarinlik ma'nosidagi 빈말 인사 shakllaridan ko'ra ovqat tayyorlash uchun ko'p urunganligi, mazza qilib yeyishini to'g'ridan-to'g'ri va oshkora ifodalab, qanchalik yaqin munosabatda bo'lgani sari ochiqcha munosabatda bo'lishini ko'rsak, vaqt o'tishiga qarab salomlashish shakllarini o'zgarib borishini bilib olamiz. 10 yoshdagilar holatida o'zi ovqatga taklif qilish holati qiyin vaziyatligi sababli, to'g'ridan-to'g'ri foydalanadigan shakllar deyishdan ko'ra ko'proq oddiy shakl desak o'rinli bo'ladi.

Do'kondan narsa sotib olmay shunchaki chiqib ketish holatida foydalanadigan shakl 10-20 yoshdagilar “한 바퀴 돌아보고 올게요” (Bir aylanib yana kelaman) dan foydalanib, 30 yosh va undan kattalar “나중에 또 올게요” (Keyinroq yana kelaman) shaklini afzal ko'radi. Umuman, erkaklar “나중에 또 올게요” (Keyinroq yana kelaman), ayollar “한 바퀴 돌아보고 올게요” (Bir aylanib yana kelaman) ni afzal ko'rib ishlatishi malum.

III BOB. O'ZBEK TILI VA BOSHQA TILLARDA SALOMLASHISH SHAKLLARINING TURLARI VA FOYDALANISH HOLATLARI.

Biz bu bobda boshqa tillarda salomlashish ifodalarining holatlarini tahlil qilish emas balki uni korey tilidagi shakl bilan farqli va o'xshash jihatlarni solishtirishga qaror qildik. Buning uchun biz salomlashish ifodalari boshqa tillarda qanday shaklda namoyon bo'lishini ingliz, xitoy, yaponlarning salomlashish ifodalari bilan solishtirib ko'rish uchun koreys tilini o'rganayotgan o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazildi. Obyektiv sifatida hammasi 96 kishi ingliz, 35 kishi xitoy, 12 kishi yapon talabalari olindi.

Koreyslar ifodalaydigan salomlashish shakllarining ma'nosi asosan tinglovchi sog'ligi va hol-ahvoli haqida bo'lib, tinglovchi oilasi sog'ligi yoki tinglovchi tashqi ko'rinishi va ob-havo, ovqatlanish haqidagi shakllarda unchalik ko'rinmaydi. Umuman, tez-tez uchrashib turadigan holatda ovqatlanilini so'rash holati ko'p uchraydi. Ba'zan uchrashadigan shaxslar o'rtasida sog'liq va hol-ahvolini so'rash holati ko'proq uchraydi.

Inglizlar sog'liq > ob-havo > tashqi ko'rinish > ovqatlanish shaklidagi tartibni afzal ko'rib, sog'liq, ob-havo, sog'liqni so'rashni ko'p ishlatishadi.

Xitoyliklar ovqatlanish > sog'liq > tashqi ko'rinish kabi tartibi savol-javob orqali ma'lum bo'lib, bir kishilik savol-javobda ovqatlanish yoki sog'liq haqida sog'liqdan ko'ra umumiy sog'liqni so'rash va tinglovchi oilasining holatini so'rash ko'proq ishlatilishi malum bo'ldi. Xitoyliklar “你忙吗?” “빠브냐?” (Bandmisan?) shaklini ko'proq ishlatib, ma'lum bir hududlarga ko'ra ob-havo haqidagi salomlashish shakllarini ko'p ishlatadigan hududlar ham mavjud.

Yaponlar sog'liq > ob-havo > tashqi ko'rinish > ovqatlanish shaklidagi tartibini afzal ko'rsada, bir kishilik savol-javobda hol-ahvolini so'rash yoki umumiy sog'liqni

so'rashni ko'p ishlatishini aytadi. Yuqorida solishtirilayotgan tillar salomlashish ifodalarining ma'noviy jihatdan eng ko'p ishlatiladigan shakl tinglovchi hol-ahvolini so'rash va sog'ligini so'rash.

Koreyslar ishlatadigan xayrlashish vaqtida “나중에 (언제)밥 한 번 먹자” (Keyingi safar (qachon) bir bor ovqat yeyaylik) ifodasi ingliz, yapon tillarida ham bor. Uyko'rdiga sovg'a olib kelgan kishiga “아유, 무거운데 뭘 이런 걸 사 왔어.그냥 오지”(Voy, nima buncha og'ir, quruq kelsangiz ham bo'lar edi) kabi ifodalar ingliz, xitoy, yapon tillarida ham mavjud bo'lib, ishlatilishi deyarli bir xil. Mehmondorchilikda mehmonga tortiladigan ovqat tayyorlab kelinganda “음식이 입에 맞을지 모르겠네요” (Mazzasi sizlarga yoqadimi bilmayman) deya kamtarlikni ifodalash ingliz, yapon, xitoy tillarida ham mavjud. Narsa sotib olmay, shunchaki do'konga kirgan vaqtda “한 바퀴 돌아보고 올게요/나중에 (다음에) 또 올게요” (Bir aylanib kelaman/keyinroq yana kelaman) deyish ham ingliz, yapon va xitoy tillarida ham mavjud.

Yuqorida biz boshqa tillardagi salomlashish shakllari ifodalarini koreys tilidagi mavjud shakllar bilan o'xshash jihatlarni ko'rgan bo'lsak, quyida ulardagi mavjud farqli ihatlarni ko'rib chiqamiz.

Koreys tilida ingliz tilida kabi vaqtga ko'ra alohida salomlashish shakllari mavjud emas. Hamma vaqt “안녕하세요?”(Assalomu alaykum) shaklini ishlatishadi. Salomlashishning bunday turli shaklda bo'lishi o'rniga ovqat yegan yemaganligini so'rashda “아침 (점심 / 저녁) 드셨어요?”(Nonushta /tushlik/kechki ovqatni yedingmi?) shakli mavjud. “안녕하세요?” (Assalomu alaykum)ni o'rniga “How are you?” degan ma'noda vaqtga ko'ra “Good morning / Good afternoon / Good evening” o'rnida “아침 드셨어요? / 점심 드셨어요? / 저녁 드셨어요?” (Nonushta /tushlik/kechki ovqatni yedingmi?) shakllari mavjud deya olamiz.

Inglizlarda ovqatlanganligi so'rash holati deyarli yo'q bo'lib, xitoy tili koreys tili

bilan o'xshash taraflari ko'p bo'lmasada, koreyslar asosan ishlatadigan ovqatlanganligi so'rash holati salomlashish shakli sifatida tez-tez ishlatilmaydi. Salomning manosida “你好” ni asosan ishlatishadi. Yapon tilida “ohayogozaimasu” “konnichiha” “konbanha” ertalab, tushlik payti va kechki payt yani har biri alohida-alohida bo'lgan vaqtga ko'ra salomlashish shakllari mavjud bo'lsada, sog'liqni so'rash maqsadida ovqat yeganligini so'rash kam uchraydigan holatdir. Bunday salomlashish ifodasidan kelib chiqib Koreya holatida tinglovchining ovqatlanganligini so'rashga jiddiy ahamiyat berishini tushunib yetishimiz mumkin.

1-dan, koreys tili salomlashish ifodasi shakli bo'lgan uydan chiqish vaqtida ko'pincha ishlatiladigan “다녀오겠습니다.”(Borib kelaman) va unga javob tariqasida beriladigan “안녕히 다녀오세요”(Borib keling) shakli mavjud. Bunday shakl bor bo'lsada, hech narsa demasdan ketish holati ham mavjud. Ingliz tilida “I'm leaving” bor bo'lsada, koreys tilidagidek ko'p foydalanilmay, xitoy tilida “我上班去了” (회사에 갔다 올게요[Firmaga borib kelaman]), “我去学校了” (학교 다녀오겠습니다[Maktabga borib kelaman]), “我去了” (나간다[Ketdim]) shakllari bor bo'lib, yapon tilida ham “ittekimasu” (다녀오겠습니다[Borib kelaman]) hamda “itemairimasu” (다녀오겠습니다[Borib kelaman])lar mavjud.

2-dan, koreyslar uchrashgan vaqtda “수고하십니다” va “잘 부탁드립니다” kabi salomlashish shakllaridan foydalansalar, inglizlarda bunga muvofiq ifodaning o'zi yo'q. “I'll do my best.” o'ziga uncha ishonchi bo'lmagan vaqtda, kuchi va qobilyati yetishmagan yoki “Qo'limdan kelgan barcha harakatni qilaman” egalagi tufayli bunga ega muvofiq ifoda shakli deya olmayiz. Aksincha, bunday shakl yaponlarda mavjud.

3-dan, koreyslar ishni tugatgandan so'ng “수고하셨습니다” degan ifodani ko'p ishlatishadi. Aslida kichik yoshdagilarga ishlatiladigan shakl bo'lib, birga ishlayotgan vaqtda ajralish vaqtida katta odam yoki hamkasblarga ko'p ishlatiladi. Inglizlarda

ham “ Thanks for your hard work” ham mavjud bo’lib, faqat ish bilan bog’liq bo’lgan holatlarda faqat kichiklarga ishlatiladi. Umuman, ajralish vaqtida ishlatiladigan “See you latter” koreys tilida “다음에 봐요” bilan bir xil bo’lib, amerikaliklar ko’pincha ishlatadigan “Have a nice (good) day) yoki “Have a good time” ga teng keladigan koreys salomlashish ifodalari mavjud emas. Yoshlar orasida ishlatiladigan “좋은 시간 되세요” yoki “좋은 주말 보내세요” lar ingliz tili tasirida paydo bo’lgan salomlashish shakllaridir.

4-dan, koreyslar ovqat yeyishdan oldin va keyin “잘 먹겠습니다” va “잘 먹었습니다” ga o’xshash salomlashish shakllari ifodalaridan foydalanib, bu xitoy tilida “잘 먹겠습니다” dan ko’ra yeb bo’lgandan so’ng “吃饭了, 谢谢” (배 부르게 잘 먹었습니다)ni asosan ishlatib, yapon tilida “itadakemasu” (잘 먹겠습니다) va “gochsousamadesita”(잘 먹었습니다) mavjud bo’lib, yaponlar koreyslarga nisbatan bu ifodalarni ishlatishda to’liqroq rioya qiladi.

5-dan, koreys salomlashish ifodalari tinglovchi haqidagi qiziqishini to’g’ridan-to’g’ri ko’rsatib, shaxsiy savollarni ko’p berib, boshqa davlatlarda bunday ifodalar yo’q. biz birinchi bor uchrashayotgan holatda bo’lsakda vaqt o’tib tinglovchi haqida maqtoov sifatida “참 인상이 좋으시네요” deya tashqi ko’rinishi haqida ifodallasada ayniqsa, inglizlar bemorlik holatida tinglovchi tashqi ko’rinishi haqida bunday to’g’ridan-to’g’ri shaklni ishlatmay, sog’ligi haqida so’rashda ham to’g’ridan-to’g’ri savol berilmaydi. Kattalarga ishlatiladigan “그 동안 건강하셨는지요?” va shunga o’xshash salomlashish shakllari ham ingliz tilida foydalanilmaydi.

Sog’liq haqida so’ralsada to’g’irdan-to’g’ri shakldagi ifodalardan foydalanilmay, tug’ilgan kun tabrigi sifatida kattalarga uzoq umr tilash, sog’lik tilash kabi ifodalar ishlatilmasligi aytib o’tilgan. Xitoyliklar ham kattalardan “Sog’misiz?” deya so’rashdan “您过得怎么样?”(그간 잘 지내셨어요?) deya salomlashib, tug’ilgan holatida “祝您生比南山” (오래 오래 사세요) deyishadi. Yaponlar ham bunday

holatda foydalanadigan uzoq umr, sog'liq haqidagi shakllar yo'q bo'lib, o'rniga "itsumademoogenkide"(언제까지나 건강하시기를) dan foydalanishadi,.

Koreys salom ifodalarida ob-havo bilan bog'liq bo'lmagan ifodalar ko'p bo'lmay, bazan ob-havo yaxshi bo'lgan holatda yoki havo juda issiq yoki sovuq bo'lgan vaqtda ob-havo haqidagi ifodalarni ishlatishadi. Aksincha, inglizlarda ob-havo bilan bog'liq ifodalar juda ko'p .

Yuqorida koreys salomlashish ifodalarining orasida boshqa davlat salomlashish ifodalari bilan farqli jihatlarini solishtirib ko'rdik. Koreys salomlashish ifodalari ingliz tilidan ko'ra xitoy va yapon tillariga ko'proq o'xshash bo'lib, pinmal insha shakli, ayniqsa, yapon tili bilan bir xil holatda qo'llaniladi.

O'ZBEK TILIDA SALOMLASHISH SHAKLLARI TURLARI VA FOYDALANISH HOLATLARI

Salomlashish.

Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot salomlashishdan boshlanadi. Salomlashish beg'araz, chin qalbdan bo'lishi bilan bir qatorda, biron kishi bilan muloqot qilishdan oldin salomlashishning quyidagi qoidasiga amal qilish joiz.

Ertalab uyqudan turgach, yuvinib, oilaning katta a'zolariga iltifot bilan salomlashiladi va "yaxshi dam oldingizmi?" degan so'zni aytish joizdir.

"Salom" so'zi "sulh", "do'stlik", "omonlik" demakdir. Ko'rinib turibdiki, salomlashish ikki kishi orasidagi sulh, do'stlik ramzi, omonlik, sog'-salomatlik tilash nishonasi. Shuningdek, salomlashish ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib

kelayotgan milliy urf-odatlarimizdandir.

Salomlashish odobida o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, qovog'ini uymasdan iliq tabassum bilan salom beriladi. Yoshlar kattalarga, mo'tabar kishilarga salom berganida qisman engashadi. Salom berganda "Assalomu alaykum" so'zlari dona-dona qilib aytiladi.

Biz ota-bobolarimizdan qolgan salomlashish odobini, axloqiy merosni kanda qilmay o'zimizdan keyingi avlodlarga qoldirishimiz lozim.

Shuningdek, ertalab uyg'onganimizda oila a'zolariga salomlashish bilan birga "Yaxshi yotib-turdingizmi?" deya so'raladi. Kechqurun uxlashga yotish avvalida "Yaxshi yoting"/ "Yaxshi yotib-turing"/ "Shirin tushlar ko'ring" deyiladi.

Taziyada.

Taziyaga borilgan vaqtda xonadon sohibiga "Bandalik, Xudo sabr bersin/ Hammamizning boshimizda bor gap" qabilidagi gaplar bilan marhum yaqinlarini ko'nglini ko'tarishga harakat qilinadi.

Bemorni ko'ragani borganda va tashqi ko'rinish haqida.

Bemor ko'ragani borganda bemor sog'ligi haqida so'rab, "Tuzalib qoldingizmi?", "Rangi- ro'yingiz binoyiday" deya hol –ahvol so'raladi.

Xayrlashayotib "Xudo shifo bersin" yoki "Dardini bergan shifosini ham beradi"/ "Hali ko'rmagandek bo'lib ketasiz." deya bemor ko'nglini ko'tarishga harakat qilinadi.

Tashqi ko'rinish haqida gapirganda (bunda hech qanday kasal emas) "Bugun ko'rinishingizga gap yo'q"/ "Juda go'zalsiz"/ "Ochilib ketibsiz" kabilar xushomad tarzida emas balki shunchaki o'z fikrini ifodalovchi ifodalar ishlatiladi.

Biror narsaga ega bo'lgan shaxsga tilak

Biror kishi biror narsa yoki mol-mulklik bo'lgan vaqtda bunda mulk egasiga

“Qulluq bo’lsin/ muborak bo’lsin / Muborak bo’lsin/ Nasib etsin/ Buyursin” va boshqa shakldagi iboralar orqali tilagini izhor qiladi.

Xayrlashuv.

Xayrlashuv odobi ham xalqimiz odatlaridan biri bo’lib, o’ziga xos odob qoidalari va insoniy fazilatlardan iboratdir.

Xalqimizda o’ziga xos bo’lgan odob kodeksida xayrlashuvning ham o’ziga yarasha qoidalari mavjud. Xayrlashayotgan kishi tez-tez kelib turadigan, kunda yoki kunora uchrashib turadigan kishilar bo’lsa, o’ng qo’lini ko’krakka qo’yib: “Xayr, yaxshi boring”, “Oq yo’l”, “Uydagilarga salom ayting”, “Tez-tez kelib turing”, “Yaxshilikda uchrashaylik”, “Kelganingiz uchun rahmat” kabi so’zlar orqali xayrlashiladi.

Mehmonga kelgan odam ketish paytida, albatta xonadondagilar bilan xayrlashib, mezbonlarning qilgan xizmatlari uchun tashakkur bildirib, rahmat aytishi, “Urintirib qo’yganim uchun uzr”, “Tashakkur”, “Rahmat, juda yaxshi o’tirdik”, “Uy bekasining qo’li juda shirin ekan” kabi iltifotlar bildirishadi.

Ish joylarida yoki malum guruh yoki hamkasblar orasida xayrlashish holatlari ham “Yaxshi qolinglar”/ “Charchamangizlar”/ “Ertaga ko’rushguncha” kabi iboralar ishlatiladi.

Xayrlashuvning ayrim g’amgin vaziyatlarida ham inson o’zini yo’qotib qo’ymasligi, odob bilan ish tutishi, sabrli bo’lishi lozim. Xayrlashuv ham salomlashish kabi go’zal bo’lmog’i va dildan chiqmog’i zarur.

Uchrashib qolgan holatda.

Kattalar bilan uchrashgan holatda avval salom berilib, keyin hol-ahvol so’rashadi. Birinchi bor uchrashgan holatda salomlashishdan so’ng o’zini tanishtiriladi. Tanishlar va do’stlar uchrashmaganiga ancha bo’lgan holatda “E, ko’rishmaganimizga ham

ancha bo'libdi. Sog'-salomat yuribsanmi?" deya tinglovchi vaziyatini so'raydi. Shuningdek, do'stlar orasida o'z xursandchiligini ifodalab, "E, kimni ko'rayapman? / "E, kim bu" kabilar ham ishlatiladi.

Yoki bo'lmasa "Bu yerlarda nima qilib yuribsan?" biror joyga ketayotganligini so'rash maqsadida "Yo'l bo'lsin" kabi iboralar ishlatiladi. Bu ham odobni saqlashdir, yani to'gridan-to'g'ri "Qayerga borayapsan?" deb so'ramasdan odob yuzasidan so'rash shakli sanaladi.

Yangi yil tabrigi.

Yangi yil bayramida barcha bir-birini tabriklashda "Yangi yilingiz muborak bo'lsin/Yangi yilingiz bilan" deya tabriklashadi. Shuningdek, baxt-omad tilashib kelasi yangi yillargacha o'ynab-kulab yurishini tilab ham qo'shimcha qilib qo'yishadi.

Tug'ilgan kun tabrigi.

Biror kishining tug'ilgan kuniga borilgan vaqtda tug'ilgan kun sohibiga "Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman" deyiladi. Shuningdek, unga uzoq umr tilab "100 yoshga kiring. /yaqinlaringiz va bizning baxtimizga sog' bo'ling" deya tilaklar ham bildiriladi.

Mehmon taklifi.

Uyga mehmonlar tashrif buyirganda uy egasi ochiq yuz bilan "Xush kelibsizlar" deya kutib oladilar. Mehmonlarga kelganligi uchun rahmat aytib, "Tashrifingiz uchun rahmat" deya minnatdorchilik bildiradi.

Biror narsa munosabati bilan tashrif buyurgan mehmon o'zi bilan sovg'a olib kelgan bo'lsa xonadon sohibiga uzatar ekan "Kam bo'lsa ham ko'p o'rnida/ kichik bo'lsada katta o'rnida ko'rasiz" deya qo'shimcha qilib qo'yadi. Xonadon sohibi ham

“Quruq kelaversalaringiz ham bo’lar edi. Nima tashvish qilib yuribsizlar” deb sovg’ani oladi.

Mehmonga borilganda tortiladigan ovqat holatida ham o’ziga xos madaniyat shakli mavjud. Uy egasi ovqatni stolga tortayotib, “Qani, marhamat olingizlar”, “Sizlarga yoqadi degan umiddanam” deb qo’yadi.

Ovqatlanib bo’lishgach, “Ovqatingiz juda mazzali bo’libdi. Rahmat” kabi iboralar mehmon tomonidan aytilsa, mezbon “Osh bo’lsin” deya o’z holatini bildiradi.

Do’konga chiqqan va aylanib yurgan vaqtda.

Do’konni aylanib yurgan vaqtda sotuvchi mijozni taklif qilish maqsadida turli iboralardan foydalanadi. “Keling, marhamat./Xush kelibsiz” va hokazolar. Xaridor xariddan so’ng sotuvchiga “Rahmat, savdoningizni barorini bersin./Bozoringiz yaxshi bo’lsin” deya o’z tilaklarini bildiradi.

Ammo biz xarid qilmasdan shunchaki aylanib yurgan holatda sotuvchi taklifini shunchaki rad etmasdan, xushmuomalalik bilan “Rahmat, bir aylanib kelaylik”/“Rahmat, boshqalarini ko’rib qaytib kelamiz” deya javob qaytariladi.

Sog’liqni so’rash.

Yuqorida aytib o’tilgan kasal ko’rdi yoki uchrashib qolgan holatlardagi sog’liqni so’rashlarini keltirib o’tdik. O’zbek millatining o’ziga hos jihati shundaki, sog’liqqa aloqador ifoda va iboralarni ko’p qo’llashidadir. Tanishlar va qarindoshlar ko’cha-ko’ya uchrashib qolgan holatda salomlashishgandan so’ng, albatta, hol-ahvol so’rashishadi. Bunda tinglovchi sog’ligi va hol-ahvolidan tortib, oila a’zolarining sog’ligigacha so’raladi.

Shuningdek, ishlari qandayligi (biror ishda ishlagan holatda), ishdagi vaziyatlarini so’rashni ham o’z ichiga oladi. Biror joyda o’qisa, o’qishdagi vaziyati so’raladi.

Ob-havo haqida

Bu jihat bizning millatimizga unchalik xos bo'lamagan shakl hisoblanadi. Bizda ob-havo haqida uncha-munchaga gapirilmaydi, shunchaki o'z munosabatini bildiradi, xolos. Yani, "Bugun havo yaxshi" yoki "Bugun yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi" va boshqa holatlar.

Og'zaki nutq murojaat shakllari

Bu shakl bizning millatda ham mavjud bo'lib, bunda so'zlovchi tinglovchiga o'z tilakni bildirar ekan, unga yuzaki yondashadi. Masalan, biror tanish bilan uchrashib qolgan holatda "Uyga o'tinglar, bir choylashamiz" / "Uyga kiringlar bir piyola choy ichamiz" kabi ifodalarda so'zlovchi shu narsani chin dildan emas, balki madaniyat va milliylik yuzasidan aytmoqda.

Biror munosabat bilan olinayotgan sovg'ani ham shunchaki olavermasdan, "Nima ovora bo'lib, ko'tarib yuribsiz. Quruq kelsangiz ham bo'laverardi. Sizning o'zingiz sovg'a-ku" kabi iboralarda ham pinmal insa ifodalariga duch kelamiz.

Tashrif buyurgan mehmon oldiga taomni tortar ekan "Yoqimli ishtaha" deyish bilan birga "Sizlarga yoqadimi yo'qmi bilmayman" yoki "Qo'ldan kelagancha pishirdim" deya qo'shimcha qilib qo'yadi. Bunda mezbon mazali ovqat qilgan bo'lsada, o'zining kamtarinligini ko'rsatishga urinadi.

Shuningdek, o'zbek tilida ham koreys tilidagi kabi aynan o'xshash pinmal insa shakllaridan biri bu do'kondan chiqish holatidir. Bizlarda ham koreyslardagi kabi "Keyinroq kelaman", "Bir aylanib yana kelaman", Boshqa do'konlarni ko'rib, yana kelaman" shakllar mavjud.

O'zbek tilidagi pinmal insa shakllari yuzakilik darajasi ancha past bo'lib, unda so'zlovchini madaniyatligini, kamtarinligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

XULOSA

Salomlashish shakllari – bu shu xalqning madaniyati, manaviyati tarixi ommaviy ijodi, xalq badiiy faoliyatini ko'rsatib beruvchi, xalq madaniy va ma'naviy hayotini aks ettiruvchi boshqa shakllardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan bosh bo'g'indir. Har bir xalqning asrlar davomidagi tarixini aks ettiradigan boy so'z san'ati bo'lganidek o'zbek va koreys xalqining o'ziga xos salomlashish shakllari mavjud. Davr va muhit, shuningdek, ota-bobolar tomonidan yaratilgan, xalqning yuksak saviya va madaniyatli vakillari ijrosida sayqal topib avlodan avlodga o'tib kelayotgan salomlashish shakllari tabiiyki shu xalqning milliy qadriyatlari, madaniyati, an'analari-yu urf-odatlarini o'zida mujassam etadi.

O'zbek va koreys salomlashish shakllarining qiyoslab o'rganilishi har ikkala tilga xos madaniy, ma'naviy urf-odatlarni, milliy qadriyatlarni solishtirib o'rganishga, madaniyatlarimiz o'rtasidagi umumiylik va farqlovchi belgilarni aniqlash, bu bilan har ikki xalq o'rtasidagi madaniy, ma'rifiy, ilmiy va siyosiy munosabatlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Ular har bir tilning o'ziga xos qonuniyatlaridan va til taraqqiyotining turli davrlarida kelib chiqadi. Salomlashish shakllari avlod-dan-avlodga og'zaki va turli ma'nbalar tomonidan o'tib kelib, koreys xalqining o'tmishi, ma'daniyati, turmush tarzi va boshqa ijtimoiy, ma'naviy hayotiy jihatlari haqida yaxlit obrazli bir tushuncha berishini ta'riflar bilan izohlab, ularni keltirilgan misollarda ko'rib chiqdik. Ayni koreys tili ommalashayotgan bir paytda, tilning bosh va asosiy qismi bo'lgan-korey tili salomlashish shakllarini tadqiq qilish, ularning turli jihatlarini o'rganib chiqish dolzarb masala sifatida maydonda chiqqan

Shu bilan birga tadqiqotimizdan keilib chiqib, salomlashish shakllari inson va uning hayoti aksicha emas, balki insonning tarixiy taraqqiyotida paydo bo'lgan, shakllangan, mukammal ko'rinishga kelgan muloqot vositasi tilning ham eng katta asosisi degan xulosa kelamiz.

Koreys tili somatik frazeologizmlari tuzilish jihatdan biroz so'z birikmalariga o'xshasa-da, ammo ular tarkibidagi komponentlarning gramatik qoyidalaridan

chekingan holda birikish holatlari hamda ularning to'ridan-to'g'ri ifodalaydigan ma'nolari mantiqqa mos kelmasligiga qarab so'z birikmalaridan farqlanishini ko'rib chiqdik. Ushbu bitiruv malakaviy ishda ko'rib chiqilganlaridan quyidagilarni xulosa qilib keltirish mumkin.

Koreys salomlashish ifodalari tarkibiy tuzulish jihatidan vaziyat(holat) jihatdan va ma'no jihatdan bo'lib o'rganildi. Shuningdek, ularning har ikkisi yana bir qancha tarkibiy qismlarni o'zichiga olishini ham ko'rib chiqdik. Bunda koreys tili salomlashish shakllari tarkibiy tuzilishining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O'rganilgan shakllar o'ratsida o'zbek, koreys va boshqa (ingliz, yapon, xitoy)tillarda bir xil ma'noda ishlatiladigan shakllar guruhini ajratish mumkin.

Ular har bir tilda mavjud shakllardir.

Ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

- 1.Har ikkala tilda bir xil ma'no va qo'llanilishga ega shakllar
- 2.Har ikkala tilda bir-biriga biroz yaqinlashgan, ammo to'liq mos kelmaydigan shakllar:
- 3.Har ikkala tilda ikki xil ma'no va qo'llanilishga ega shakllar
- 4.Faqat o'zbek xalqiga yoki koreys xalqiga xos shakllar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1Karimov I. A. Ozod va obod vatan erkin va pirovard maqsadimiz. -T., O'zbekiston, 2000, 63-b.

2Karimov I. A. "Barkamol avlod orzusi".-Toshkent.: "Sharq" NMAK,1999y

3Etiketning oltin kitobi.-Toshkent "Yangi asr avlodi" 258-b

4Yoshlarda xulq-odob madaniyatini shakllantirish.-Ma'ruza matni.

:Toshkent, 2013

5Koreyskiy yazik srednoga uroven

6간현화 (2007) "한국어 표현 능력 향상 위한 담화 기능별 문항 표현 단위에 대한 연구- '거절'의 담화 기능을 중심으로-" 응용언어학 23권 1호, 응용언어학회, 17-36쪽.

7노대규(2002), "한국어의 화영의미론", 국학자료원.

8문금현(2005), "한국어 화용 교육 방안", 숙명어문논집 6호, 숙명어문학회,

366-376쪽.

9문금현(2007), "새터민의 어휘 및 화용 표현 교육 방안", 새국어교육 80호,

한국국어교육학회, 160-167쪽.

10문금현(2008), "외국인을 위한 한국어 인사 표현교육 방안", 새국어교육 80호 한국국어교육학회,202-207쪽.

11문금현(2009), "한국어 빈말 인사 표현의 사용 양상과 특징", 언어와 문화

5권 1호 한국언어문화교육학회.

12박수란(2005), "한국어 교육을 위한 한국어 인사 표현을 연구", 이화여대 석사 학위 논문.

13박영순(2003), "한국어 교육으로서의 문화 교육에 대하여", 이중언어학 23

호, 이중언어학회.

14방혜숙(2007), “한국어 교재에 나타난 인사 표현 양상과 그 효과적 교수 방안 연구”, 한국어교육 18권 1호, 국제한국어 교육학회, 156-159쪽.

15서정수(1997), “인사말 비교 연구” 한국어교육 8호, 국제한국어교육학회.

16 이종철(2004), “국어 표현의 화용론적 연구” 역락.

16이준희(2000), “첫 만남 대화의 화용론적 특성에 관하여”, 한말연구 7호, 한말연구학회.

18이찬규(2008), “인지*화용적 관점에서의 의미와 본질과 유형”, 어문론집 28호.

19이 탁(1989), “호칭의 말과 인사의 말에 대하여”, 국어생활 9호, 한국국어 연구소.

20이 해영(2002), “비교 문화적 화용론에 기초한 한국어의 화용 교육”, 이중언어학 21호, 이중언어학회, 45-69쪽.

21전영우(1987), “국어화법론”, 집문당.

22전혜영(2004), “한국어 공손표현의 의미” 한국어 의미학 15권, 한국어의 미학회.

23조선일보사*국립국어원 편(1991), “우리 말이 예절 - 화법의 실제와 표준”, 조선일보사.

24조영미(2000), “외국어로서의 한국어 학습자들의 문화 학습 연구: 한국어 화자와의 문화 간 의사소통 양상을 중심으로”, 연세대 교육대학원 석사학위논문.

25조현용(2003), “한국어문화 교육 방안에 대한 연구”, 이중언어학 22호, 이중언어학회, 348-359쪽.

26 황병순(1999), “국어 인사말 연구”, 배달말 25호, 배달말학회.

FOYDALANILGAN INTERNET MANZILLARI:

FOYDALANILGAN LUG'ATLAR:

Koreyscha-o'zbekcha lug'at

Koreyscha-o'zbekcha lug'at

Little Korean-English dictionary

English- uzbek dictionary,2013 Toshkent. "Yangi asr avlodi"